

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI
SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI**

«BMIning himoya uchun DAKga
Tavsiya qilaman» fakultet
dekani _____ T.Sharipov
«__» _____ 2018 yil

**«Kasb ta’limi» kafedrası
5111008- kasb ta’limi: buxgalteriya hisobi va audit
ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: “Buxgalteriyaning predmeti va vazifalari” mavzusini
oqitishda charxpalak pedagogik texnologiyasidan foydalanish
(Kasb-hunar kollejlari misolida)**

Bajardi: KTB -114 guruh talabasi

Sayimov Bobur

Ilmiy rahbar: «Kasb ta’limi»
kafedrası assistenti:

Musabayeva L.A.

Malakaviy ish muhokama qilindi
va himoyaga ruxsat berildi:
«Kasb ta’limi» kafedrası
mudiri, p.f.n., _____ O.J.Suyunov
«__» _____ 2018 yil

SAMARQAND – 2018

MUNDARIJA

Kirish.....	3-6
I-Bob. Buxgalteriya hisobi predmetining ilmiy-nazariy masalalari.....	7-24
1.1. Hisob tushunchasi, uning turlari va boshqaruvda tutgan o‘rni.....	7-11
1.2. Buxgalteriya hisobining predmeti va ob’ektlari.....	12-21
1.3. Buxgalteriya hisobining tamoyillari.....	22-24
II-Bob. KHKlarning ta’lim jarayonida “Buxgalteriyaning predmeti va vazifalari” mavzusini o’rganishda pedagogik texnologiyalarning zaruriyati va uning oziga xos jihatlari.....	25-40
2.1. KHKning ta’lim jarayonida “Buxgalteriyaning predmeti va vazifalari” mavzusini o’qitishni tashkiliy jihatlari.....	25-31
2.2 “Buxgalteriyaning predmeti va vazifalari” mavzusini o’rganishda pedagogik texnologiyalarning zaruriyati.....	32-40
III-Bob. “Buxgalteriyaning predmeti va vazifalari” mavzusini o’rganishda charxpalak texnologiyasini qo’llash amaliyoti.....	41-67
3.1. “Charxpalak” pedagogik texnologiyasini tasnifi va xususiyatlari...41-53	
3.2. Samarqand bank kolleji dars ta’lim jarayonida “Charxpalak” texnologiyasini qo’llash amaliyotini tahlili va uning afzalliklari.....	54-67
Xulosa.....	68-70
Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.....	71-73
Ilovalar.....	74-75

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi. 2017-2021 yillarda O`zbekistonni rivojlantirishni beshta ustuvor yo`nalishlari bo`yicha Harakatlar Strategiyasida kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosatida insonni intellektual va ma`naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog`liq bo`lgan uzluksiz ta`lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxs-fuqaroni shakllantirish asosiy muammo qilib qo`yilgan. Bu esa, yangicha fikrlaydigan, o`qitishning zamonaviy metodlari, shakllari va usullaridan samarali foydalana oladigan, yuqori malakali pedagog kadrlarni talab etadi. Bizningcha, mana shunday muhim vazifalardan biri zamonaviy o`quv dasturlari, o`qitishning hozirgi zamon usullari asosida Davlat ta`lim standartlarida belgilab berilgan ixtisoslik va maxsus fanlarni o`qitish hamda kasbiy mutaxassislikka ega bo`lgan yuqori malakali kadrlar tayyorlashdan iboratdir.

O`zbekiston keyingi yillarda ro`y berayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy o`zgarishlarning nazariy asoslari hamda amaliy dasturlari hayotga tatbiq etilmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojatnomasida mustaqillik yillarida ta`lim sohasida erishgan natijalarga tanqidiy yondoshib, kadrlar tayyorlash tizimida tub islohotlar zarurligini asoslab berdi.

Samarqand bank kollejida malakaviy amaliyot o`tash mobaynida olib borgan kuzatishlarim natijasi dars o`tish jarayonida ko`rgazmali va tarqatmali materiallardan keng va samarali foydalanib dars o`tishni talab etishini ko`rsatmoqda. Bu esa bugungi kunda bizning ta`lim tizimimizda ta`lim oluvchilarga dars o`tishda pedagogik texnologiyalarni qo`llash zaruriyatini yuzaga chiqaradi. Shu maqsadda men “Buxgalteriya hisobi” o`quv fanidan dars jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo`llash hamda “Charxpalak” texnologiyasini tatbiq etish orqali ta`lim oluvchilarning faol qatnashishini ta`minlashga erishish mumkin degan xulosaga keldim. Bunday hukm esa menda “Buxgalteriyaning predmeti va vazifalari” mavzusini oqitishda charxpalak pedagogik texnologiyasidan foydalanish” mavzusi borasida tadqiqot olib borish

va bitiruv malakaviy ish yozish g`oyasini vujudga keltirdi. Bularning barchasi o`z navbatida men tanlagan bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligini belgilaydi. Shuningdek, “Buxgalteriyaning predmeti va vazifalari” mavzusini oqitishda charxpalak pedagogik texnologiyasidan foyddalanish natijasida ta`lim oluvchilarning bilim darajasi yuqori darajadagi ko`rsatkichlarga erishiladi va bunday natijaga erishish esa amaliy ega ekanligidan dalolat beradi .

Ishning maqsadi. “Buxgalteriyaning predmeti va vazifalari” mavzusini oqitishda charxpalak pedagogik texnologiyasidan foyddalanish yo`llarini samarali jihatlarini ko`rsatib berishdan iboratdir.

Belgilangan maqsadga muvofiq ravishda, quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko`zda tutiladi:

- mavzuning maqsadi, vazifalari, tarkibi, tuzilishi va dinamikasining tahlili haqida ilmiy-nazariy ma`lumotlar berish va ularni o`rganish;
- “Buxgalteriyaning predmeti va vazifalari” mavzusining o`ziga xos xususiyatlarini aniqlash;
- mavzuning o`ziga xos xususiyatlarini ma`ruza darsini o`tish jarayonida hisobga olish yo`llarini ko`rsatish;
- mavzuni o`rganishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish zaruriyati isbotlash;
- mavzuni seminar mashg`uloti jarayonida o`tishda “Charxpalak” texnologiyasini qo`llash yo`llarini yoritish;
- mavzu bo`yicha guruhni kichik guruhlarga bo`lib, dars o`tishda “Charxpalak” texnologiyasini boshqa metodlar bilan birga qo`llash va dars samaradorligining oshirilishiga erishish;
- mavzu bo`yicha xulosalar berish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Mavzuning o`rganilganlik darajasi. “Buxgalteriyaning predmeti va vazifalari” mavzusi buxgalteriya hisobi va auditining muhim mavzularidan biri hisoblanadi. Bu mavzu doimiy ravishda tadqiqotchilar obyekti bo`lib kelgan. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida “Buxgalteriyaning predmeti va

vazifalari” mavzusiga tegishli masalalar K.B.Urazov¹, N.U. Xudayberdiyev², pedagogik texnologiyalar bilan bog`liq xususiyatlari E.A.Iskandarov, O.J.Suyunov³ va boshqalarning ilmiy ishlarida o`rganilgan.. Bunday ilmiy izlanishlar uslubiy va ilmiy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo`lsada “Buxgalteriyaning predmeti va vazifalari” mavzusini oqitishda charxpalak pedagogik texnologiyasidan foydalanish kasb-hunar kollejlari misolida buxgalteriya hisobi va pedagogika bilan bog`liq jihatlari pedagogic texnologilar asosida o`qitish amaliyoti chuqur o`rganilmagan.

Ishning ob`ekti. Samarqand bank kollejining o`quv jarayoni .

Ishning predmeti. Kasb-hunar kollejlarda “Buxgalteriya hisobi” o`quv fanining “Buxgalteriyaning predmeti va vazifalari” mavzusini oqitishda charxpalak pedagogik texnologiyasidan foydalanish bilan bog`liq munosabatlar hisoblanadi.

Mavzuning amaliy ahamiyati.

- mavzuning maqsadi, vazifalari, tarkibi, tuzilishi, dinamikasining tahlili va o`ziga xos xususiyatlarini aniqlash; haqida ilmiy-nazariy ma`lumotlar berilganligi;
- mavzuning o`ziga xos xususiyatlarini ma`ruza darsini o`tish jarayonida hisobga olindi va pedagogik texnologiyalardan foydalanish zaruriyati isbotlanganligi;
- mavzuni seminar mashg`uloti jarayonida o`tishda “Charxpalak” texnologiyasini qo`llash va guruhni kichik guruhlarga bo`lib, dars o`tishda “Charxpalak” texnologiyasini boshqa metodlar bilan birga qo`llash va dars samaradorligining oshirilishiga erishilganligi;
- mavzu bo`yicha xulosalar berilganligi va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilganligidadir.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibiy tuzilishi : Bitiruv malakaviy ish

¹ Urazov K.B., Vaxidov S.B. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobotining xususiyatlari.- T. : ”Adib nashriyoti”, 2011.

²Urazov K.B., Xudayberdiyev N.U. Soliqlar va to`lovlar ayditining xususiyatlari. Samarqand – 2012 .

³Iskandarov E.A., Suyunov O.J. Pedagogik texnologiyalar. O`quv qo`llanma. – Samarqand, 2012.

kirish, asosiy qism uchta bob, boblarga mos ravishda ettita paragraph, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati va ilovalardan iborat. Ishning birinchi bobi buxgalteriya predmetining ilmiy nazariy masalalari deb nomlangan bo`lib u hisob tushunchasi, uning turlari va boshqaruvda tutgan o`rni, buxgalteriya hisobining predmeti va ob`ektlari, buxgalteriya hisobining tamoyillari kabi savollarni o`zida qamrab olgan. Ikkinchi bob - KHKlarning ta`lim jarayonida "Buxgalteriyaning predmeti va vazifalari" mavzusini o`rganishda pedagogik texnologiyalarning zaruriyati va uning oziga xos jihatlari deb ataladi. Bob KHKning ta`lim jarayonida "Buxgalteriyaning predmeti va vazifalari" mavzusini o`qitishni tashkiliy jihatlari va "Buxgalteriyaning predmeti va vazifalari" mavzusini o`rganishda pedagogik texnologiyalarning zaruriyati kabi paragraflardan tashkil topgan. Ishning uchinchi bobi - Buxgalteriyaning predmeti va vazifalari" mavzusini o`rganishda charxpalak texnologiyasini qo`llash amaliyoti deb ataladi. Ushbu bob "Charxpalak" pedagogik texnologiyasini tasnifi va xususiyatlari va Samarqand bank kolleji dars ta`lim jarayonida "Charxpalak" texnologiyasini qo`llash amaliyotini tahlilli va uning afzalliklari paragraflaridan tashkil topgan.

I-Bob. Buxgalteriya hisobi predmetining ilmiy-nazariy masalalari

1.1. Hisob tushunchasi, uning turlari va boshqaruvda tutgan o‘rni

Har qanday jamiyatni rivojlanishi uni boshqarishni taqozo etadi. Boshqarish, o‘z navbatida, jamiyatning turli tarmoq va sohalarida yuz bergan va berayotgan jarayonlar, xo‘jalik faoliyatini olib borayotgan sub’ektlarning mablag‘lari, ularni tashkil etish manbalari, erishayotgan natijalari va boshqa jihatlari to‘g‘risidagi axborotlarni mavjudligiga bog‘liq bo‘ladi. Bunday axborotlarni o‘zida mujassamlashtiruvchi vosita bo‘lib xo‘jalik hisobi hisoblanadi.

Xo‘jalik hisobi negizida, ko‘rinib turibdiki, «xo‘jalik» va «hisob» so‘zlari yotadi.

«**Xo‘jalik**» deganda ma‘lum maqsadlarga yo‘naltirilgan, o‘zining bazisi va ustqurmasiga ega bo‘lgan sub’ektlar tushuniladi. Xo‘jalik sifatida qaraladigan sub’ektlar bo‘lib bir butun mamlakatning o‘zi va uning turli tarkibiy bo‘linmalari, masalan, tarmoqlari, sohalar, mintaqalari, hududlari, vazirliklar, birlashmalar, korxonalar hisoblanadi. Mamlakat doiraisdagi xo‘jalik xalq xo‘jaligi, uning eng qo‘yi bo‘g‘inidagi xo‘jalik korxonalar xo‘jaligi deb ataladi. Iqtisodiyotning yuqori va qo‘yi bo‘g‘inlari o‘rtasidagi xo‘jaliklarga tarmoqlar, sohalar, birlashmalar, viloyatlar, tuman va shaharlar xo‘jaliklari kiradi.

«**Hisob**» - bu xo‘jalikda yuz bergan va berayotgan hodisa va jarayonlar, ularning natijalari to‘g‘risidagi axborotlarni yig‘ish, qayd etish, guruhlash va uzatish tizimi. Demak, hisobning asosiy mahsuli bo‘lib axborot, hisob yuritishning asosiy maqsadi bo‘lib, bu axborotlarni aniq, to‘liq va o‘z vaqtida yig‘ish, qayd etish, guruhlash va foydalanuvchilarga yetkazib berish hisoblanadi.

Shunday qilib, ikki so‘z yig‘indisidan tashkil topgan «xo‘jalik hisobi» xalq xo‘jaligining turli bo‘g‘inlarida yuz bergan va berayotgan hodisa va jarayonlar, ularni natijalarini soniy va sifat jihatdan harakterlovchi axborotlarni yig‘ish, qayd etish, guruhlash va uzatish tizimidir.

Xo‘jalik hisobini u yoki bu belgilariga qarab turli turlarga ajratish mumkin.

Xo'jaliklarni moliyalashtirilishiga ko'ra ularda yuritiladigan hisobni ikkiga bo'lish mumkin: korxonalar hisobi, byudjet hisobi.

Korxonalar hisobi deganda o'z-o'zini mablag' bilan ta'minlaydigan, mustaqil faoliyat yuritadigan xo'jalik tushuniladi. Ularga zavod va fabrikalar, firmalar, shirkatlar, jamoa xo'jaliklari, qurilish tashkilotlari, banklar va boshqalar kiradi. Ushbu xo'jaliklarda yuritiladigan hisob korxonalar hisobi deb ataladi.

Byudjet hisobi deganda, davlat tomonidan moliyalashtiriladigan muassasalarda yuritiladigan hisob tushuniladi. Bunday muassasalarga maorif, sog'liqni saqlash, madaniyat va boshqa ijtimoiy soha muassasalari kiradi.

Xalq xo'jaligi sohalariga ko'ra xo'jalik hisobi alohida shu sohalar hisobidan iborat bo'ladi, masalan, sanoat sohasi hisobi, qishloq xo'jaligi sohasi hisobi, savdo sohasi hisobi, maorif sohasi hisobi va boshqalar.

Axborot foydalanuvchilariga ko'ra xo'jalik hisobi ichki va tashqi hisobga bo'linadi.

Ichki hisob deganda faqat xo'jalikning o'zida yuritiladigan hisob tushuniladi. Ichki hisob adabiyotlarda turlicha nomlangan, masalan, operativ-texnik hisob, boshqaruv hisobi, ishlab chiqarish hisobi.

Operativ-texnik hisob deganda xo'jalik bo'limlari tomonidan u yoki bu maqsadda yuritiladigan tezkor hisob tushuniladi. Kadrlar bo'limini xodimlarni ishga o'z vaqtida kelishi va ketishining operativ hisobi, smena boshlig'ini yoki masterining stanoklarni ish holati hisobi va boshqalar operativ-texnik hisobga misol bo'la oladi.

Boshqaruv hisobi – bu xo'jalik rahbariyati talablariga ko'ra boshqaruvga tegishli qarorlarni qabul qilish maqsadida batafsil (analitik) tarzda yuritiladigan hisob tizimi. Bunday hisobni xo'jalikning hamma bo'limlari olib borishlari mumkin.

Ishlab chiqarish hisobi – bu xo'jalikni ishlab chiqarish jarayonlari va ularning natijalarini u yoki bu usullarda aks ettiruvchi hisob tizimi. Odatda, ishlab chiqarish hisobi negizida mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish usullari yotadi, masalan, normativ, reja, haqiqiy tannarx usullari.

Tashqi hisob deganda xo'jalik faoliyati to'g'risidagi axborotlarni tashqi axborot foydalanuvchilarga taqdim etuvchi hisob tizimi tushuniladi. Tashqi hisobga qo'yidagilarni kiritish mumkin:

- Moliyaviy hisob
- Statistika hisobi

Moliyaviy hisob deganda xo'jalik moliyaviy faoliyati to'g'risidagi axborotlarni asosan tashqi foydalanuvchilar uchun taqdim etuvchi hisob tizimi tushuniladi. Moliyaviy hisob tashqi foydalanuvchilar uchun asosan hisobotlar ko'rinishida taqdim etiladi. Moliyaviy hisob ma'lumotlaridan ichki foydalanuvchilar ham keng foydalanadilar. Moliyaviy hisob ma'lumotlarini keng iste'mol qiluvchi tashqi va ichki foydalanuvchilarning tarkibi 2-chizmada keltirilgan.

Statistika hisobi deganda jamiyatda yuz bergan va berayotgan yoppa hodisa va jarayonlarni soniy aks ettiradigan va sifat jihatdan izohlaydigan hisob tizimi tushuniladi. Statistika hisobining asosiy mahsuli bo'lib statistik hisobotlar hisoblanadi. Statistik hisob ma'lumotlarni tuman, viloyat va yaxlit mamlakat doirasida jamlaydi. Statistik hisob davlat tomonidan strategik boshqaruvni olib borishga asos hisoblanadi.

Davlat tomonidan tartibga solinishiga ko'ra xo'jalik hisobini ikki turga bo'lish mumkin:

- Reglamentlashtiriladigan
- Reglamentlashtirilmaydigan

Reglamentlashtiriladigan hisob deganda shakli va mazmuni, yuritish texnikasi va tartibi ma'lum me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solingan hisob tizimi tushuniladi. Tartibga soluvchi hujjatlar bo'lib qonunlar, farmonlar, milliy standartlar, nizomlar, yo'riqnomalar hisoblanadi. Reglamentlashtiriladigan hisobga O'zbekiston Respublikasida moliyaviy hisob va statistik hisob kiradi. Ushbu hisob turlari shakl va mazmun jihatdan hamma uchun bir xildir.

Reglamentlashtirilmaydigan hisob deganda shakl va mazmuni, yuritish tartibi va texnikasi davlat tomonidan belgilab qo'yilmagan hisob tizimi tushuniladi.

Bunday hisob turlariga operativ-texnik hisobini, boshqaruv hisobini, ishlab chiqarish hisobini kiritish mumkin. Ushbu hisob turlarida qoʻllaniladigan registrlar, ularning shakllari, yuritish tartibi har bir xoʻjalik tomonidan oʻz hohishiga qarab belgilanadi.

Xoʻjalik hisobi uni yurituvchi boʻlimlarga qarab buxgalteriya hisobi, kadrlar boʻlimi hisobi, ishlab chiqarish boʻlimi hisobi, taʼminot boʻlimi hisobi, sotish boʻlimi hisobi va boshqalarga boʻlinadi.

Xoʻjalik hisobining boshqaruvda tutgan oʻrni asosan u bajaradigan axborot berish va nazorat qilish funksiyalarida yorqin namoyon boʻladi.

Axborot berish funksiyasi – bu ichki va tashqi foydalanuvchilarni xoʻjalik faoliyati, uning mablagʻlari, mablagʻlarni tashkil topish manbalari, faoliyat natijalari toʻgʻrisidagi axborotlar bilan taʼminlash. Foydalanuvchilarga beriladigan axborotlar qoʻyidagi talablarga javob berishi kerak:

- Reallik – beriladigan axborotlarni aniq boshlangʻich hujjatlarga asoslanganligi;
- Oʻz vaqtidalilik – axborotlarni foydalanuvchilarga kerakli vaqtda yetkazish;
- Batafsillik- axborotlarni foydalanuvchilarga ularning talablarini qoniqtiradigan mazmunda berish;
- Neytrallik – axborotlarni foydalanuvchilarga bir-birini huquqlariga putur yetkazmasdan berish;

Xoʻjalik hisobi beradigan axborotlar xalq xoʻjaligining barcha boʻgʻinlarini strategig va taktik boshqarish vositasi, oʻtqaziladigan iqtisodiy tahlil va auditning asosiy manbai, nazorat qilish quroli hisoblanadi.

Nazorat – bu yuz bergan, berayotgan va beradigan xodisa va jarayonlarni qonuniyligi, haqqoniyligi va toʻgʻri rasmiylashtirilganligini tekshirish. Xoʻjalik hisobi tomonidan olib boriladigan nazoratni asosan uchta turga boʻlish mumkin:

- Dastlabki nazorat
- Joriy nazorat
- Keyingi nazorat

Dastlabki nazorat – xo‘jalikda yuz bergan va beradigan xodisa va operatsiyalarni qonuniyligi, ular bo‘yicha tayyorlangan boshlang‘ich hujjatlarni to‘g‘riligini ularni imzolash chog‘ida tekshirish.

Joriy nazorat – yuz bergan jarayon va operatsiyalarni ular bo‘yicha tuzilgan hisobotlarni qabul qilish chog‘ida tekshirish.

Keyingi nazorat – xo‘jalikda yuz bergan jarayon va operatsiyalarni, mablag‘lar holatini inventarizatsiya qilish, taftish o‘tkazish, taqqoslama dalolatnomalarni tuzish yo‘llari bilan tekshirish.

1.2. Buxgalteriya hisobining predmeti va ob'ektlari

«Buxgalteriya hisobi» deb atalmish hisobning ushbu turi o'zining ko'p yillik tarixiga ega. Faoliyat sifatida u kishilik jamiyatida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni, masalan, artel, manifakturalarni paydo bo'lishi bilan vujudga kelgan. Ishlab chiqarishni rivojlanib borishi bilan mos ravishda buxgalteriya hisobi ham rivojlangan, uning shakl va mazmuni, yuritish texnikasi va usullari takomillashib borgan. Boshqaruv organlari xodimlari ichida aynan hisob-kitob ishlari bilan shug'ullanuvchi kasb egalari shakllangan. Shu yo'sinda buxgalteriya hisobi maxsus kasbga aylangan.

Jamiyatni boshqarishni takomillashtirish buxgalteriya hisobini rivojlantirishni va ushbu kasb egalarini tayyorlash, ularning malakasini oshirib borishni taqozo etgan. Bu zaruriyatlar buxgalteriya hisobini maxsus fan sifatida shakllanishiga, buxgalterlar tayyorlash maktablarini vujudga kelishiga (jumladan, italiya, angliya, amerika, nemes, fransuz, amsterdam, venesiya, rus, toskan, lombard va shu kabi), ularni asta-sekinlik bilan rivojlanib borishiga asos solgan.

Buxgalteriya hisobini fan sifatida vujudga kelishiga eng katta hissa qo'shgan maktablardan biri bo'lib Italiya maktabi hisoblanadi. Aynan ushbu maktab vakili, mutaxassisligi bo'yicha matematik bo'lgan Luka Pacholi (1445-1517) buxgalteriya hisobi fanini yaratuvchisi sifatida butun dunyo mamlakatlarida tan olingan. Uning 1494 yilda chop etilgan «Schetlar va yozuvlar to'g'risida traktat» nomli asari birinchi marta buxgalteriya hisobini fan sifatida o'qitilishiga asos solgan. Buyuk olimning asarida birinchi marta buxgalteriya schetlari, ularga ikki yoqlama yozish tushunchalari kiritildi, ularning mohiyati ochib berildi, bu yozuvni amalga oshirishda to'rtta omil, ya'ni sub'ekt, ob'ekt, vaqt, joy hisobda ko'rinib turilishlik zaruriyatlari isbotlandi. Luka Pacholi o'z asarida buxgalteriya hisobida ikkita postulatni (schetlar tizimida debet va kredit oborot summalari, debet va kredit qoldiq summalari hamma vaqt bir-biriga teng bo'lishi kerak), shuningdek debitorlik va kreditorlik qarzni tan olishning ikkita tartibini (hech kimni qarzdor (debitor) deb bo'lmaydi, agarda u buni tan

olmasa; hech kimni ishonchli vakilim (kreditor) deb bo'lmaydi, agarda ma'lum shartlarda u bunga o'zi rozi bo'lmasa) yaratdi. Luka Pacholidan keyingi olti asr maboynida buxgalteriya hisobida juda ko'p yangi postulatlar, tartiblar vujudga keldi, jumladan De Lya Porta postulati (XYII asr) , J. Savari postulati (XYII asr), J.Dzappa postulati (XIX asr), E.Pizani postulati (XIX asr), I.P.Russiyan postulati (XIX asr), J.Cherboni postulati (XIX asr), I. F. Sher postulati (XX asr), E.Shmalenbax postulati (XX asr), shuningdek P.Gerstner tartibi (XIX asr oxiri va XX asr boshi), V. Riger tartibi (XX asr), Ch. Garrison tartibi (XX asr) va boshqalar. Ushbu va boshqa postulat va tartiblarga asoslangan buxgalteriya hisobi asta-sekinlik bilan oddiy kishilik faoliyatidan maxsus iqtisodiy fan darajasiga yetdi, u bugun barcha iqtisod yo'nalishidagi oliy va o'rta maxsus ilm dargohlarida o'qitilmoqda.

Buxgalteriya hisobi ham faoliyat, ham maxsus fan sifatida o'zining predmetiga ega. **Buxgalteriya hisobining predmeti** deganda umuman olganda korxonalar va tashkilotlarning xo'jalik faoliyati, ushbu faoliyatni tashkil etuvchi jarayonlar va ularni yuritilishini ta'minlovchi mablag'lar, mablag'larning tashkil topish manbalari, shuningdek xo'jalik faoliyatining natijalari tushuniladi.

Yuqoridagi ta'rifga asosan buxgalteriya hisobi predmetini ifodalovchi ob'ektlarni quyidagi to'rtta guruhga ajratish mumkin:

- Xo'jalik faoliyati;
- Xo'jalik aktivlari;
- Xo'jalik aktivlarining manbalari;
- Xo'jalik faoliyatining natijalari

Quyida ularning mohiyatiga to'xtalamiz. **Xo'jalik faoliyati.** Har qanday korxonaning xo'jalik faoliyati deganda unda yuz beradigan **ta'minot, ishlab chiqarish** va **sotish jarayonlarining** majmuasi tushuniladi. Korxonalar faoliyat ko'rsatishi uchun unga mehnat predmetlari va vositalari, ishchi kuchi, pul mablag'lari va boshqa ta'minotlar kerak bo'ladi. **Ta'minot** deb atalmish bu jarayonni, odatda, korxonaning maxsus ta'minot bo'limi xodimlari olib

boradilar. Ushbu jarayonsiz faoliyatning keyingi jarayonlari, ya'ni ishlab chiqarish va sotish jarayonlari amalga oshishi mumkin emas. Shuning uchun korxonaning doimiy faoliyat ko'rsatishi aynan ta'minot jarayonining uzliksizligiga bevosita bog'liqdir. **Ishlab chiqarish jarayoni** deganda ishchi kuchi va mehnat vositalari yordamida mehnat predmetlaridan yangi mahsulotlar yaratish tushuniladi. Ushbu jarayon o'z ichiga turli texnologik operatsiyalarni oladi, bu operatsiyalarni bajarish esa turli harajatlarni amalga oshirishni ta'qozo etadi. Ishlab chiqarish jarayonining pirovard natijasi bo'lib tayyor mahsulot hisoblanadi. Tayyor mahsulotni ishlab chiqarishga ketgan moddiy harajatlar, mehnatga xaq to'lash harajatlari, ishlab chiqarish vositalarining amortizatsiya harajatlari va boshqa ushbu jarayonga tegishli harajatlar ishlab chiqarish harajatlarini, yaratilgan mahsulot qiymatiga kiritilgan harajatlar esa tayyor mahsulotning tannarxini tashkil qiladi. Shuni ta'kidlash joizki korxonaning tomonidan bajarilgan ishlar, masalan qurilish-montaj ishlari, ko'rsatilgan xizmatlar, masalan turistlarga ko'rsatilgan yotoqxona va boshqa xizmatlar yoki auditorlik xizmati ham ishlab chiqarish jarayoni hisoblanadi. Bunday ishlab chiqarish jarayonining natijasi bo'lib bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat xajmi hisoblanadi, ularga sarflangan harajatlar bajarilgan ish yoki xizmatning tannarxini tashkil qiladi. **Sotish jarayoni** deganda ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan tayyor mahsulotlarni, bajarilgan ishlarni, ko'rsatilgan xizmatlarni haridorlarga sotish tushuniladi. Ushbu jarayonda tayyor mahsulot, ish, xizmat pulga aylanadi, sotuvchi va sotib oluvchi o'rtasida o'zaro hisob-kitoblar bo'yicha qarzlarning vujudga keladi. Sotish jarayonida korxonaning yalpi tushumi, sotish tannarxi, sotishdan

olingan foyda yoki zarari, sotish jarayonining harajatlari, unga doir soliqlar va boshqa ko'rsatkichlar hisobga olinadi.

Buxgalteriya hisobining birinchi guruh ob'ekti bo'lib hisoblangan xo'jalik faoliyati faqatgina uni tashkil etuvchi jarayonlarni doimiy va uzliksiz ravishda amalga oshirib borgan holda mavjud bo'ladi. Bu jarayonlarni bir birisiz tasavvur etib bo'lmadi, chunonchi ta'minotsiz ishlab chiqarish, ishlab chiqarishsiz esa sotish jarayoni amalga oshmaydi. Sotish bo'lmasa korxonaga pul kelib tushmaydi, pulsiz esa ta'minot, ishlab chiqarish jarayonlarini yangidan takrorlab va rivojlantirib bo'lmaydi. Bundan xulosa qilsa bo'ladiki, xo'jalik faoliyati mablag'larni usliksiz aylanishidan va ko'payib borishidan iboratdir. Xo'jalik faoliyatining barcha jarayonlari buxgalteriya hisobining muhim ob'ektlari bo'lib hisoblanadi. Har bir jarayonda yuz bergan operatsiyalar buxgalteriya hisobida o'zining soniy o'lchovini va sifat tavsifini topadi. Buxgalteriya hisobi ta'minot jarayonida mehnat predmetlari va vositalarini qancha miqdorda, qaysi baholarda, qaysi ta'minotchilardan sotib olininganligi, shuningdek ular bo'yicha ta'minotchilar bilan hisob-kitoblarning holati to'g'risida batafsil axborot beradi. Ishlab chiqarish jarayoni bo'yicha buxgalteriya hisobida qanday mahsulotlar ishlab chiqarilganligi, qancha ishlab chiqarilganligi, buning uchun qancha harajat qilinganligi, omborlarga qabul qilingan tayyor mahsulotning qiymati (tannarxi) va boshqa ma'lumotlar shakllanadi. Sotish jarayoni bo'yicha buxgalteriya hisobi qancha mahsulot sotilganligi, kimlarga sotilganligi, qanday to'lov turlari bo'yicha sotilganligi, qanday baholarda sotilganligi, haridorlar bilan hisob-kitoblarning holati, sotishdan olingan tushum, sotishga doir harajatlari, sotishdan olingan foyda, undan to'lanadigan soliqlar va boshqalar to'g'risida atroflicha axborot beradi.

Xo'jalik aktivlari. O'z faoliyatini yuritish uchun har qanday korxonaga xo'jalik aktivlariga ega bo'lishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligidan 1998 yil 14 avgustda 475 –tartib raqami bilan ro'yxatdan o'tgan «Moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etish uchun konseptual asos»ga muvofiq (39- modda) **aktivlar** deganda xo'jalik

yurituvchi sub'ektning baxolash qiymatiga ega bo'lgan va o'z ichiga pul mablag'lari

va debitorlik qarzlarni olgan moddiy, shuningdek nomoddiy mulki tushuniladi.

Aktiv deb tan olish uchun moddiy va nomoddiy mulk quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- Qiymatga ega bo'lishi va bu qiymat baholanadigan bo'lishi kerak.
- Egalik qilish huquqiga asosan qaysi korxonaga balansiga kiritilgan bo'lsa, shu korxonaga tomonidan nazorat qilinishi lozim.
- Kelgusida korxonaga iqtisodiy naf keltirishi kerak, jumladan korxonaning pul mablag'larini kirimini ko'payishiga bevosita va bilvosita hissa qo'shishi kerak.
- Yuz bergan xo'jalik operatsiyalari natijasi hisoblanishi kerak, masalan tayyor mahsulot ishlab chiqarish jarayonining natijasidir.

Aktivlarning harakterli xususiyatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Jismoniy ko'rinishga (shaklga) ega bo'lishi ham, ega bo'lmasligi ham mumkin. Masalan, bino yoki stanok aniq shaklga ega, lekin patent, litsenziya, savdo belgisi, mualliflik huquqi moddiy shaklga ega emas.
- Sotib olingan, bepul kelib tushgan, ishlab chiqarilgan bo'lishi mumkin.
- Korxonada yuz berayotgan jarayonlarda moddiy asos yoki ularning natijasi hisoblanishi mumkin. Masalan, xom-ashyo ishlab chiqarishga moddiy asos, tayyor mahsulot esa ishlab chiqarishning natijasi hisoblanadi.
- Boshqa aktivlarga almashtirilishi mumkin.
- Qarzlarni to'lash uchun ishlatilishi mumkin.
- Qisqa yoki uzoq vaqt maboynda foydalanishda bo'lishligi mumkin.
- Oborotda va oborotdan tashqarida bo'lishligi mumkin.

Korxonalarining yuqorida keltirilgan talab va xususiyatlarga javob beradigan asosiy aktivlariga quyidagilar kiradi:

1. Uzoq muddatli aktivlar – 1 yildan ko'p muddatda xizmat qiladigan va oborotda bo'ladigan moddiy va nomoddiy mablag'lari:

• **Asosiy vositalar**- binolar, inshootlar, mashina va mexanizmlar, transport vositalari, kompyuter texnikasi, mebel va boshqalar.

• **Nomoddiy aktivlar** – litsensiya, patent, savdo markasi, tovar belgisi, gudvil, mualliflik huquqi va boshqalar.

• **Moliyaviy investitsiyalar** - sotib olingan qimmatli qog‘ozlar, berilgan kredit va qarzlari, kiritilgan pay va badallar.

• **Kapital investitsiyalar** - tugallanmagan qurilishlarga, harakatdagi asosiy vositalarni kengaytirish, rekonstruksiya va modernizatsiya qilishga sarflangan, shuningdek yangi uzoq muddatli aktivlarni sotib olishga kiritilgan mablag‘lar, sotib olingan, lekin o‘rnatilmagan jihozlar.

2.Qisqa muddatli aktivlar – 1 yilgacha muddatda xizmat qiladigan va oborotda bo‘ladigan mablag‘lar:

• **Ishlab chiqarish zaxiralari** – xom-ashyo va materiallar, yoqilg‘i, tara va tara materiallari, ehtiyot qismlar, qurilish materiallari, xo‘jalik inventarlari, boquvdagi va o‘stirishdagi yosh mollar.

• **Tugallanmagan ishlab chiqarish harajatlari** – tayyor holga yetmagan mahsulotlarga to‘g‘ri keladigan harajatlar, yarim mahsulotlar.

• **Tayyor mahsulotlar** – omborlarga qabul qilingan tayyor buyumlar.

• **Tovarlar** - magazin va omborlarda saqlanayotgan iste‘mol buyumlari.

• **Kelgusi davr harajatlari** - hisobot yilida kelgusi davrlar uchun qilingan harajatlar, masalan obuna to‘lovlari, ijara to‘lovlari.

• **Muddati uzaytirilgan harajatlar** - hisobot yilida kelgusi davrda hisobiga to‘langan soliqlar va boshqa harajatlar.

• **Pul mablag‘lari** – kassadagi, yo‘ldagi va banklardagi milliy va chet el valyutalari.

• **Pul ekvivalentlari** – pulli cheklar, yo‘llanmalar, chiptalar, talonlar, markalar va boshqalar.

• **Olinadigan schyotlar** - boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning korxonada oldidagi debitorlik qarzlari.

Barcha xo‘jalik aktivlar korxonada yuritiladigan buxgalteriya hisobining muhim ob‘ektlari hisoblanadi, ularni har birining holati, ko‘payishi va kamayishi buxgalteriya hisobida hujjatli asosda aks ettiriladi. Buxgalteriya hisobi ma‘lumotlari asosida korxonada aktivlari boshqariladi, tahlil etiladi va nazorat qilinadi.

Korxonalarining xususiy kapitalini shakllanishining asosiy manbalari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- **Ustav kapitali (UK)** – bu korxonaga uning ta‘sischilari tomonidan kiritilgan mablag‘lar majmuasi.

- **Qo‘shilgan kapital (QK)** – bu aksiyalarni sotish va nominal qiymatlari o‘rtasidagi ijobiy farq, shuningdek chet el investorlarini ustav kapitaliga kiritgan mablag‘lari bo‘yicha vujudga kelgan valyutalar o‘rtasidagi ijobiy farqlar summasi.

- **Rezerv kapitali (RK)** – bu korxonaning sof foydasidan tashkil etilgan rezerv kapitali, mulkni qayta baholashdan olingan qo‘shimcha qiymat va bepul kelib tushgan mulklar qiymatining majmuasi.

- **Taqsimlanmagan foyda (TF)** – bu korxonaning ta‘sischilari o‘rtasida taqsimlanmay qolgan sof foydasining summasi.

- **Rezervlar (R)** – bu turli joriy to‘lovlarni amalga oshirish uchun hisobot davr daromadlari evaziga shakllangan zaxira summasi, masalan joriy va kapital ta‘mirlash uchun, mehnat ta‘tili haqlarini to‘lash uchun va shu kabilar.

- **Maqsadli tushumlar (MT)** – korxonaga turli maqsadlarda turli manbalardan kelib tushgan mablag‘lar majmuasi (grantlar, subsidiyalar, a‘zolik badallari, soliqlar bo‘yicha imtiyozlar va boshqalar).

- **Grantlar (G)** -- bu korxonaga qaytarib olinmaslik sharti bilan davlat, nodavlat, xalqaro tashkilot va fondlardan aniq maqsadlar uchun kelib tushgan moddiy va nomoddiy mablag‘lar majmuasi. Ushbu mablag‘lar faqatgina qat‘iy maqsadlarga ishlatilishi lozim.

- **Subsidiyalar (S)** – bu korxonaga uning faoliyatini rivojlantirish maqsadida ma‘lum bir shartlarga ko‘ra davlat tomonidan berilgan yordam va imtiyozlar summasi.

Xususiy kapitalning umumiy miqdori yuqoridagi uning elementlari summalarining yig'indisidan iborat bo'ladi, ya'ni:

$$\mathbf{XK = UK + QK + RK + TF + R + MT}$$

Aksionerlik jamiyatlarida chiqarilgan o'z aksiyalari boshqalardan qayta sotib olingan bo'lsa, u holda xususiy kapital summasini topishda sotib olingan xususiy aksiyalar qiymati (XAQ) xususiy kapital miqdoridan chegirib tashlanadi, ya'ni:

$$\mathbf{XK = UK + QK + RK + TF + R + MT - XAQ}$$

Majburiyatlar – bu korxonaning boshqa yuridik va jismoniy shaxslar oldidagi qarzlari. Majburiyatlarning asosiy turlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

• ***Olingan uzoq va qisqa muddatli qarzlilar*** – bu mos ravishda 1 yildan ko'p va 1 yilgacha muddatga boshqa yuridik shaxslardan vaqtinchalik moliyaviy yordam sifatida olingan mablag'larni qaytarish bo'yicha qarzlilar summasi.

• ***Olingan uzoq va qisqa muddatli kreditlar*** - bu mos ravishda 1 yildan ko'p va 1 yilgacha muddatga banklardan kredit shartnomalari asosida olingan kredit resurslarini qaytarish bo'yicha qarzlilar summasi.

• ***Ta'minotchilarga to'lanadigan schetlar*** – bu olingan tovar-moddiy boyliklar uchun ta'minotchilarga o'tqazilmay qolingani qarzlilar summasi.

• ***Haridorlardan olingan avanslar*** - bu haridorlardan tovar-moddiy boyliklarni sotib olish uchun oldindan kelib tushgan pullar bo'yicha qarzlilar summasi.

• ***Muddati kechiktirilgan uzoq va qisqa muddatli qarzlilar*** – bu soliqlar va boshqa to'lovlar bo'yicha muddati mos ravishda 1 yildan ko'p va 1 yilgacha bo'lgan davrga uzaytirilgan qarzlilar summasi.

• ***Byudjet oldidagi qarzlilar*** – bu hisobot davrida hisoblangan, lekin byudjetga o'tqazib berilmagan soliq va to'lovlar bo'yicha qarzlilar summasi.

• ***Ijtimoiy sug'urta bo'yicha qarzlilar*** – bu ijtimoiy sug'urta bo'yicha hisobot davrida hisoblangan, lekin tegishli sug'urta organlariga o'tqazib berilmagan qarzlilar summasi.

• ***Ish xaqi bo'yicha qarzlilar*** – bu korxonaning xodimlariga hisoblangan va vaqtincha saqlanayotgan ish haqlarini to'lanmay qolingani qismi.

• **Ta'sischilar oldidagi qarzar** – bu ta'sischilarga hisoblangan, lekin da to'lanmagan dividendlar bo'yicha korxonaning qarzi, shuningdek ta'sischilar safidan chiqib ketgan shaxslarning ustav kapitalidagi hissasini qaytarilmagan qismi.

• **Boshqa kreditorlar oldidagi qarzar** – bu turli xizmatlar, foizlar, kamomadlar, da'volar va boshqa to'lovlar bo'yicha korxonaning boshqa yuridik va jismoniy shaxslar olidagi qarzi.

Buxgalteriya hisobi axborot berish na nazorat qilish vositasi sifatida korxonada aktivlarining tashkil topish manbalari bo'yicha ma'lumotlarni jamlaydi, ular asosida korxonaning moliyaviy quvvati ko'rsatkichlari taxlil etiladi. Buxgalteriya hisobi ma'lumotlari asosida korxonaning xususiy kapitali, qarzlari to'g'risidagi ma'lumotlar axborot foydalanuvchilariga yetqaziladi.

Xo'jalik faoliyatining natijalari. Korxonada va tashkilotlarning xo'jalik faoliyatining natijalari bo'lib u olgan foyda yoki ko'rgan zarari hisoblanadi.

Foyda(F) – bu korxonaning daromadlari (D) va harajatlari(X) o'rtasidagi ijobiy farq, ya'ni

$$F = D > X.$$

Demak, qanchalik daromad ko'p bo'lib, harajat kam bo'lsa, korxonaning foydasi shunchalik ko'p bo'ladi.

Zarar – bu korxonaning daromadlari va harajatlari o'rtasidagi salbiy farq, boshqachasiga harajatlarni daromaddan ko'p bo'lishi, ya'ni:

$$Z = D < X$$

Demak, korxonada daromadga qanchalik ko'p harajat bilan erishsa, uning zarari shunchalik ko'p bo'ladi.

Korxonaning faoliyat natijalari ko'rsatkichlari buxgalteriya hisobining eng ma'suliyatli bo'limi, chunki ushbu ko'rsatkichlarning miqdori ularni hisobda to'g'ri aks ettirilganligiga va jamlanganligiga, hisobotlarni to'g'ri tuzilganligiga bevosita bog'liq. Shunday qilib, buxgalteriya hisobining predmeti va ob'ektlarini tashkil etuvchi iqtisodiyotning quyi bo'g'ini bo'lgan korxonalar faoliyatini aniq, batafsil ma'lumotlarda ifodalab, ularni boshqaruv organlariga,

mulkdorlarga va boshqa qiziquvchilarga o‘z vaqtida yetqazib berish ushbu soha xodimlarining jamiyatda tutgan o‘rnini yanada ham oshishining muhim garovidir.

1. 3. Buxgalteriya hisobining tamoyillari

Jahonning turli mamlakatlarida, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasida, buxgalteriya hisobini davlat tomonidan reglamentlashtirilishining muhim belgilaridan biri bo‘lib uni belgilangan tamoyillarga asoslanib yuritilishi hisoblanadi.

Buxgalteriya hisobi tamoyillari deganda uni yuritishda amal qilish lozim bo‘lgan qoida va tartiblar majmuasi tushuniladi. Buxgalteriya hisobini yuritishning tamoyillari mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida Qonuni»ning 6- moddasi bilan belgilangan, shuningdek 1-son BXMS «Hisob siyosati va moliyaviy hisobot» ning 16-49 punktlarida ushbu tamoyillarning mohiyati ochib berilgan. Bu tamoyillarning asosiylari qo‘yidagilar.

Uzliksizlik tamoyili. Bu tamoyil korxonani doimo harakatdagi sub‘ekt, ya’ni o‘z faoliyatini kelgusida davom ettiruvchi va rivojlantiruvchi sub‘ekt sifatida qaraydi. Buxgalteriya hisobini uzliksiz yuritilishi korxonaning kelajagi borligidan darak beradi. Bundan tashqari buxgalteriya hisobi korxonaning kelajakda ravnaq topishiga xizmat qiluvchi vosita hamdir.

Hisoblash tamoyili. Bu tamoyil korxonaning daromad va harajatlarini yuz bergan vaqtiga ko‘ra tan olish va shu vaqtdan boshlab ularni buxgalteriya hisobida va hisobotda aks ettirishni bildiradi. Soliq Kodeksiga muvofiq 1998 yil 1 yanvardan boshlab barcha korxonalar uchun ularning mulk shaklidan qat’iy nazar sotish momenti qilib mahsulot (ish, xizmat) ni jo‘natish (bajarish) sanasi, ular uchun to‘lov pulini qachon kelib tushishidan qat’iy nazar, qabul qilindi.

Ikki yoqlama yozuv tamoyili. Bu tamoyil korxonada yuz bergan har qanday operatsiyaning summasini bir vaqtning o‘zida ikkita schetda, ya’ni birining debetida va ikkinchisining kreditida aks ettirishni bildiradi. Ushbu tamoyilga amal qilish korxonaning aktivlari va ularning tashkil topish manbalari summalarini doimo teng bo‘lishini ta’minlaydi.

Qiymat tamoyili. Bu tamoyil korxonada aktivlari va passivlarini tannarx yoki bozor baholarida (ulardan qaysi biri past bo‘lsa, o‘shanda) hisobga olishni

bildiradi.

Pulda ifodalash tamoyili. Bu tamoyil barcha aktiv va passivlarni, yuz bergan operatsiyalarni milliy valyutada, ya'ni sum va tiyinlarda aks ettirishni bildiradi.

Ehtiyotkorlik yoki konservatizm tamoyili. Bu tamoyil korxonada hisobotida aktivlar va daromadlarni kam (ko'p) qilib ko'rsatmaslikni, shu bilan birga majburiyatlarni yoki harajatlarni ko'p (kam) qilib ko'rsatmaslikni ifodalaydi. Ushbu tamoyilni qo'llash yashirilgan rezervlarni vujudga keltirish, biron maqsadda aktiv yoki foydani kamaytirib (ko'paytirib) ko'rsatish, harajat va majburiyatlarni ko'paytirib (kamaytirib) ko'rsatish huquqini bermaydi.

Hisobot davri roromad va harajatlarining mosligi tamoyili. Bu tamoyil hisobot davri harajatlariga shu davrda real daromad keltirgan qismini kiritishni bildiradi.

Mazmuni shakldan ustunlik tamoyili. Bu tamoyil korxonada aktivlarini huquqiy maqomi bo'yicha emas, balkim ularning iqtisodiy mazmuni, egalik qilish huquqini berilish vaqtiga ko'ra hisobga olish va balansga kiritishni ifodalaydi. Masalan, tovar–moddiy boyliklar korxonaga kelib tushgan sanadan boshlab, ular uchun xaq to'langan yoki to'lanmagan bo'lishidan qat'iy nazar, korxonada aktivlari tarkibiga kiritiladi va balansga olinadi. Uzoq muddali ijaraga olingan asosiy vositalar ham ularning haqi to'lanishi muddatidan qat'iy nazar korxonada balansiga olingan kundan boshlab kiritiladi.

Neytrallik tamoyili. Bu tamoyil moliviy hisobotni bironta shaxs manfaatlarini uchun boshqa bironta shaxs zararlarini evaziga moslashtirmaslikni bildiradi.

Aniqlilik tamoyili. Bu tamoyil hisobda aks ettirilgan har bir summani qat'iy hujjatli asosga ega bo'lishligini bildiradi.

Ahamiyatlilik tamoyili. Bu tamoyil hisobda shakllangan ma'lumotlarni foydalanuvchilarning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda ahamiyatliligini bildiradi.

Muhimlilik tamoyili. Bu tamoyil hisob va hisobot ma'lumotlarini foydalanuvchilarning taqdim etilgan axborot asosida qabul qilgan qarorlariga ta'sirini bildiradi.

Tushunarlilik tamoyili. Bu tamoyil hisob ma'lumotlarini barcha foydalanuvchilar uchun tushunarlilikini bildiradi.

Yakunlanganlik tamoyili. Bu tamoyil hisob ma'lumotlarini biron bir hisobot davri uchun jamlanganligini, ya'ni moliyaviy hisobot hisobot davri ma'lumotlarini to'liq qamrab olganligini bildiradi.

Taqqoslamalik tamoyili. Bu tamoyil hisobot ma'lumotlarini o'zaro mos hisobot davrlari bo'yicha (choraklar, yil) mavjud real tendensiyalarni aniqlash uchun o'zaro taqqoslash imkoniyatlarini bildiradi. Bunday taqqoslashlar uchun o'tgan yillar ma'lumotlari taqqoslama baholarda qayta hisoblanishi lozim.

Tejamkorlik tamoyili. Bu tamoyil hisob va hisobotni kam mehnat va moliyaviy mablag'lar sarflab olib borishni bildiradi.

Tezkorlik tamoyili. Bu tamoyil hisob va hisobot ma'lumotlarini boshqaruv organlariga kerakli vaqtda va hajmda berishni bildiradi. Kechiktirib berilgan ma'lumotlar hisobning boshqaruv vositasi sifatidagi rolini pasaytiradi. Aksincha, o'z vaqtida berilgan ma'lumotlar hisobni boshqaruv vositasi sifatida rolini, uning ta'sirchanlik kuchini oshiradi.

II-bob. KHKning ta`lim jarayonida “Buxgalteriyaning predmeti va vazifalari” mavzusini o`rganishda pedagogik texnologiyalarning zaruriyati va uning oziga xos jihatlari

2.1 “Buxgalteriyaning predmeti va vazifalari” mavzusini o`rganishda pedagogik texnologiyalarning zaruriyati

Ma'lumki, hozirgi davrda o'quv jarayonini tashkil etish o'qituvchidan faqat chuqur bilimgina emas, balki pedagogik mahoratga ega bo'lishlarini, dars berishning turli metodlarini bilishni hamda o'z ustida tinmay ishlashni talab qiladi.

Har bir insonning hayoti asosini iqtisodiy faoliyat tashkil etar ekan, tabiiyki har bir odamdan iqtisodiy fikrlashni o'rganish talab etiladi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish bilan bu talab yanada kuchaydi. Bugungi kunda o'quvchilarning yoshligidan iqtisodiy fikrlay bilishi uchun mamlakatimizda o'rta maktabdan boshlab iqtisodiy bilim asoslarini o'rganishga kirishildi.

Kasb-hunar kollejlarining, ayniqsa, iqtisodiy yo'nalishdagi o'quv yurtiing o'quvchilari esa iqtisodiy fikrlashnigina emas, balki, keng doiradagi iqtisodiy muammolarni aniqlashi, tahlil qilishi, iqtisodiy rivojlanish tendensiyalariga baho berishi, bu o'zgarishlar kelajakda qanday natijaga olib kelishi mumkinligini his qila bilishi, ko'z o'ngiga keltira olishini o'rganishi zarur. Buning uchun esa, iqtisodiy fanlarni chukur bilish talab qilinadi. Murakkab xo'jalik dunyosini aks ettiruvchi bu fanlarni o'rganish uchun to'g'ri metod tanlash muhim ahamiyatga ega. Dars o'tishda to'g'ri metod tanlanmasa, nazariy jihatdan o'qituvchining bilimi yuqori bo'lishidan katbi nazar, kutilgan natijani bermaydi. O'qituvchining bilimi pedagogik mahorat bilan qo'shilgandagina o'quv jarayonini samarali tashkil etish mumkin.

Ma'lumki, Kadrlar tayyorlash milliy dasturida, ko'p marotaba ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'rganib, ularni o'quv muassasalarimizga olib kirish zarurligi ko'rsatilgan.

Keyingi o'n yillar ichida yaratilgan, pedagogikaga bag'ishlangan adabiyotlarda «Pedagogik texnologiya», «Yangi pedagogik texnologiya», «Ilg'or pedagogik texnologiya», «Progressiv pedagogik texnologiya» kabi tushunchalar ko'p

uchrab turgani bilan ularning o'zbek tilidagi maromiga etgan ta'rifi hali tuzilmagan.

Respublikamizning pedagog olim va amaliyotchilari ilmiy asoslangan hamda O'zbekistonning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan ta'lim texnologiyalarini yaratish va ularni ta'lim-tarbiya amaliyotida qo'llashga intilmokdalar.

Bu erda, nima uchun bugungi kunda pedagogik texnologiyalarning milliy nazariy asosini yaratish va amaliyotga tadbiiq etish zarurati tug'ildi, degan savol paydo bo'lishi mumkin. Jamiyatimizga qanchadan-qancha bilimli kadrlarni va yuqori malakali olimlarni etishtirib kelgan pedagogika uslublari mavjud-ku, ularning eskirib, talabga javob bermay qolgan va mafkuralashtirilgan joylarini o'zgartirib, milliy tus berib, foydalanaversa bo'lmaydimi?- degan mulohazalar ham yo'q emas. O'zbekistonning shu kundagi pedagogik jamoatchiligining» aksariyati, aynan mana shu yo'ldan bormoqda. Bu yo'l ilojsizlikdan izlab topilgan bo'lib, qisqa muddat xizmat qilishi mumkin. Mustaqillikni qo'lga kiritgan va buyuk kelajak sari intilayotgan jamiyatga bu yo'l uzoq xizmat qilolmaydi. Chunki:

birinchidan, ma'lum sabablarga ko'ra jahon hamjamiyati taraqqiyotidan ortda qolib ketgan jamiyatimiz taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan o'rin olishi uchun aholi ta'limini jadallashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida eng ilg'or pedagogik tadbirlardan foydalanishning zarurligi;

ikkinchidan, an'anaviy o'qitish tizimi yozma va og'zaki so'zlarga tayanib ish ko'rishi tufayli «Axborotli o'qitish» sifatida tavsiflanib, o'qituvchi faoliyati birgina o'quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib qolganligi;

uchinchidan, fan-texnika taraqqiyotining o'ta rivojlanganligi natijasida axborotlarning keskin ko'payib borayotganligi va ularni yoshlarga bildirish uchun vaqtning chegaralanganligi;

to'rtinchidan, kishilik jamiyati o'z taraqqiyotining shu kundagi bosqichida nazariy va emperik bilimlarga asoslangan tafakkurdam tobora foydali natijaga ega bo'lgan, aniq yakunga asoslangan texnik tafakkurga o'tib borayotganligi;

beshinchidan, yoshlarni hayotga mukammal tayyorlash talabi ularga eng ilg'or bilim berish usuli hisoblangan ob'ektiv borliqqa majmuan yondashuv tamoyilidan foydalanishni talab qilishidadir.

Pedagogik texnologiya yuqorida sanab o'tilgan beshta sabab shartlarning barcha talablariga javob beradigan ta'limiy tadbiridir.

Ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish ilmiy muammo sifatida maxsus tadqiqotlar olib borishni ko'zda tutadi. Shuni aytish joizki, ta'lim texnologiyalari pedagogika ilmining tadqiqot ob'ekti sifatida, aniq fanlarni o'qitish uslubi bo'libgina qolmay, ijtimoiy fanlarni o'qitishga ham yangicha yondashuv sifatida qayd qilinishi lozim.

Jamiyatimiz jadallik bilan taraqqiy etib, iqtisodiy va siyosiy mavqei kundankunga ortib bormoqda. Ammo, ijtimoiy sohada va ayniqsa, ta'lim-tarbiyada depsinish va umumiy taraqqiyotdan orqada qolish sezilmoqda. Bunday noxush vaziyatdan chiqib ketish yo'llaridan biri ta'lim-tarbiya jarayonini qabul qilingan davlat standartlari asosida texnologiyalashtirishdir.

Ma'rifatli va rivojlangan mamlakatlarda muvaffaqiyat bilan qo'llanib kelayotgan pedagogik texnologiyalarni o'rganib, xalqimizning milliy pedagogika an'analaridan hamda ta'lim sohasining shu kundagi holatidan kelib chiqqan holda pedagogik texnologiyasini yaratish lozim.

Texnologiya, deganda, sub'ekt tomonidan ob'ektga ko'rsatilgan ta'sir natijasida sub'ektda sifat o'zgarishiga olib keluvchi jarayon tushuniladi. Texnologiya har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalanib, ob'ektga yo'naltirilgan maqsadli amallarni muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi.

Ushbu tushunchalarni o'quv jarayoniga ko'chiradigan bo'lsak, o'qituvchining o'qitish vositalari yordamida o'quvchilarga muayyan sharoitlarda ko'rsatgan tizimli ta'siri natijasida ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan va oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarni intensiv tarzda shakllantiruvchi ijtimoiy hodisa, deb ta'riflash mumkin.

Ta'riflar nazariyasi bo'yicha bunday ijtimoiy hodisani pedagogik texnologiya desa bo'ladi.

Pedagogik texnologiya (PT) ijtimoiy zaruriyat bo'lganligidan dastavval

AQSHda 70-yillarda falsafaning bexiviorizm oqimi zaminida yuzaga kelib, boshqa rivojlangan mamlakatlarga tez tarqalib ketdi.

XX asrning 90-yillari boshida sostializm nurab, unga a'zo bo'lgan davlatlar birin-ketin mustaqil bo'lganidan keyin, har jihatdan taraqqiy etgan xorijiy mamlakatlar, shu jumladan O'zbekiston uchun ham keng yo'l ochildi.

Mustaqillikka erishgan O'zbekiston olimlari xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ilmiy-ma'rifiy aloqalar o'rnatadilar. Natijada yurtimizga ilg'or va samarali texnologiyalar kirib kela boshladi. Shular qatori jahondagi progressiv pedagogik texnologiya degan tushunchalar ham kirib keldi.

Pedagogik texnologiyani o'quv jarayoniga olib kirish zarurligini MDHga kiruvchi mamlakatlar ichida birinchilar qatorida ta'riflagan V.P.Bespalkoning fikricha, «PT-bu o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayoni loyihasidir».

Rossiya olimlaridan V.M.Monaxov: «PT-avvaldan rejalashtirilgan natijalarga olib boruvchi va bajarilishi shart bo'lgan tartibli amallar tizimidir»,- degan qisqacha ta'rifni bera turib, uning asosiy xususiyatlariga e'tiborni qaratadi. «PT-o'quv jarayonini texnologiyalashtirib, uning qayta tiklanuvchanligini hamda pedagogik jarayon turg'unligini oshirib, bu jarayon ijrochisining sub'ektiv xususiyatlaridan uni ozod qiladi»,-deydi.

M.V Klarin fikricha, PT-o'quv jarayoniga texnologik yondoshgan holda, oldindan belgilab olingan maqsad ko'rsatkichlaridan kelib chiqib o'quv jarayonini loyihalashdir.

O'zbekistonlik pedagog olim B.L.Farberman pedagogik texnologiyaga quyidagicha ta'rif beradi: PT ta'lim jarayoniga yangicha yondashuv bo'lib, pedagogikada ijtimoiy-muxandislik ong ifodasidir.

Bu ta'riflarni uzoq xorijda berilgan ta'riflar solishtirib ko'rish uchun yapon pedagog olimi T.Sakomotov ta'rifni keltiramiz. «PT-deydi Sakomoto, - bu tizimli-majmuli yuritish usulini pedagogikaga singdirish, boshqacha qilib aytganda pedagogik jarayonni muayyan bir majmuga keltirishdir».

Birlashgan millatlar tashkilotining nufuzli idoralar YUNESKO ning ta'rifi buyicha, «PT-bu bilim berish va uni egallash; texnika va inson resurslarini o'zaro uzviy bog'liq holda qo'rib, ta'lim jarayonini loyihalashda va amalda qo'llashda tizimli yangi usulidan foydalanishdir».

Keltirilgan ta'riflarni ilmiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qiladigan bo'lsak, uzoq xorijda berilgan ta'riflar bilan IV mamlakatlari olimlarining bergan ta'riflari bir-biriga yaqin keladi, farqi ham anchaligini ko'ramiz. Jumladan, Sakomoto va YUNESKO ta'riflarida majmu yondashuv tamoyiliga alohida urg'u berilgan. IV olimlarining PT ga bergan ta'riflarida tizimli yondashuv eslab o'tilgani bilan, o'quv jarayonining loyihasi tuzilayotganda uni mutloq unutib, tizimli yondashuv tamoyilining qonun va qoidalariga sira amal qilinmaganini ko'ramiz.

Haqiqatda esa, ob'ektiv borliqqa tizimli yondashuv tamoyili yaxshi bilgan kishiga, Sakomoto aytganidek, «PT-o'quv jarayonini muayyan bir tizimga keltirishdir», degan tushuncha kifoya qiladi. Bu tushuncha orqali PT ning boshqa hamma xususiyatlarini, ya'ni maksadga yo'naltirilganini, bir necha o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan qismlardan tashkil topganligini va boshqalarni anglab olsa bo'ladi. Chunki, xususiyatlarning hammasi, tizimlar nazariyasiga binoan, tizim deb nom olgan narsa va hodisalarning ajralmas siatlaridir.

Quyida mavzuning o'ziga xos xususiyatlaridan hisoblangan «Asosiy vosita(fond)larning tarkibi, tuzilishi va dinamikasining tahlili, ularning aktiv va passiv qismlarining nisbati» mavzusini o'rganishda «klaster» metodidan foydalaniladi.

Klaster (tarmoqlar) interfaol metodi – o'quvchi(talaba)ni mantiqiy fikrlash, umumiy fikr doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishga o'rgatishga qaratilgan.

Fikrlashning tarmoqlanishi – bu pedagogik strategiya bo'lib, u o'quvchi-(talaba)larning bir mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam berib, ularni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va aniq ravishda ma'lum ketma-ketlik bilan uzviy bog'langan holda tarmoqlanishlariga o'rgatadi.

Mazkur interfaol metod bilan bir mavzuni chuqur o'rganishdan avval

o'quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilish mumkin. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o'zlashtirish, umumlashtirish hamda o'quvchi(talaba)larni Ushbu mavzu bo'yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi. «Klaster» metodi yordamida o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash quyidagicha amalga oshiriladi. Quyida rasmlar keltirildi⁴:

O'quvchi(talaba)lar guruhiga bo'linadilar va ularga belgilangan vaqt ichida mavzu bo'yicha qanday tushunchalarni o'zlashtirgan bo'lsalar, ularni qog'ozga yozish vazifasi topshiriladi. Vazifani bajarish jarayonida fikrlarning to'g'ri yoki noto'g'riligiga ahamiyat bermaslik, nimani o'ylagan bo'lsa, shuni yozib borish talab etiladi. Yozuvning texnik (orfografik, mantiqiy va h.k.) jihatlariga e'tibor bermaslik aytib o'tiladi. Fikrlar tugagandan keyin guruh a'zolari tushunchalari mantiqiy jihatdan bir-biriga bog'liq chiqadilar.

PT-bu jamiyat ehtiyojidan kelib chiqib, oldindan belgilangan kishi ijtimoiy sifatlarini samarali shakllantiruvchi va aniq maqsadga yo'naltirilgan o'quv jarayonini tizim sifatida ko'rib, uni tashkil qiluvchi qismlari bo'lgan o'qituvchi (pedagog)ning o'qitish vositalari yordamida o'quvchi (talaba)larga ma'lum bir sharoitda muayyan ketma-ketlikda ko'rsatgan ta'sirini nazoratda tutuvchi va ta'lim natijasini baholab beruvchi texnologiyalashgan ta'limiy tadbiridir.

Pedagogik texnologiya, umuman olganda, reproduktiv (nusha olish) dars berishga asoslangan bo'lib, undagi o'quv jarayoni o'quvchi (talaba)larga tipik holatlardagi harakatlarni egallashga yo'naltirilgan.

Pedagogik texnologiyaning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda o'quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan o'quv jarayoni loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondashuv, eng avvalo, tasvirlash emas, balki loyihalashtirilgan natijalarni amalga oshirish imkonini beruvchi amaliy ko'rsatmali tuzilmada o'z ifodasini topadi.

Pedagogik texnologiyani tushunish uchun asosiy yo'li aniq belgilangan maqsadlarga karatilganlik, ta'lim oluvchi bilan muntazam o'zaro aloqani o'rnatish,

⁴ Ushbu rasmlar muallif tomonidan shakllantirilgan

pedagogik texnologiyaning falsafiy asosi hisoblangan ta'lim oluvchining xatti-harakati orqali o'qitishdir. O'zaro aloqa pedagogik texnologiya asosini tashkil qilib, o'quv jarayonini to'liq qamrab olishi kerak.

Demak, an'anaviy o'quv jarayonida asosiy omil pedagog (va uning faoliyati) hisoblansa, pedagogik texnologiyada birinchi o'rinda o'qish jarayonidagi o'quvchilarning faolligi qo'yiladi.

Quyida, "Asosiy vositalar tahlili" mavzusini o'rganishga oid ayrim misollar keltirildi:

Pedagogik texnologiyadagi reproduktiv bilim berish jarayonida daryo aniq bo'laklarga bo'linib, har bir bo'lagida o'quvchi (talaba)lar bilishi shart bo'lgan natijalar ko'rsatiladi. O'quv materiallar dars maqsadidan kelib chiqib, modullarga bo'lingan bo'ladi. Har qaysi modulga test savollari tuziladi. O'quv jarayoni aniq savollarga konkret javoblar topishga qurilgan bo'lib, savollar va javoblar o'zaro uzviy bog'liqlikda bo'lishi natijasida bir butunlikni, ya'ni tizimini tashkil qiladi.

Pedagogik texnologiyani yaratish tamoyillarining **birinchisi**-muayyan dars, mavzu, qism, o'quv predmetidan kutilgan **asosiy maqsadni** shakllantirib olish; **ikkinchisi-umumiy** maqsaddan kelib chiqib, darsni yoki o'quv predmetini **modullarga ajratib**, har bir moduldan kutilgan maqsadni va modullar ichida hal qilinishi lozim bo'lgan masalalar tizimini aniqlab olish; uchinchisi-modul ichida echiladigan masalalarning har biri bo'yicha **test savollarini** tuzib chiqish; **to'rtinchisi** - maqsadlar aniq bo'lib, test savollari tuzilgandan keyin, **maqsadlarga etish usullari tanlanib**, ularni ishlatadigan aniq joylarni belgilab olish.

Ta'lim jarayoniga texnologik yondashuv paytida, avval aytib o'tganimizdek, tizimli yondashuv tamoyiliga binoan dars qismlari orasidagi zaruriy bog'liqliklarga va fanlararo aloqalarga alohida e'tibor qaratiladi. Bu pedagogik texnologiyaning beshinchi tamoyili hisoblanadi. Mazkur paragraf mazmunida mavzuni pedagogik texnologiyalardan foydalanish zaruriyati haqdagi ilmiy-uslubiy ma'lumotlar berildi. Ushbu ma'lumotlar bo'lajak iqtisodchi pedagoglar uchun juda muhim hisoblanadi. Chunki ular Ushbu ma'lumot «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda asosiy vositalar tahlili» mavzusini o'qitishda muhim pedagogik ma'lumot hisoblanadi.

2.2. KHKning ta'lim jarayonida "Buxgalteriyaning predmeti va vazifalari" mavzusini o'qitishni tashkiliy jihatlari

O'zbekiston keyingi yillarda ro'y berayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarning nazariy asoslari hamda amaliy dasturlari hayotga tatbiq etilmoqda. Mamlakatimizni 2017 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2018 yilda mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojatnomasida mustaqillik yillarida ta'lim sohasida erishgan natijalarga tanqidiy yondoshib, ta'lim sohasi uchun tub islohotlar zarurligini asoslab berdi.

Amaliyot davridagi kuzatishlarimizdan kelib chiqadigan bo'lsak "Buxgalteriyaning predmeti va vazifalari" mavzusini o'rganishda ma'ruza darsini o'tish jarayoniga tashkiliy jihatdan tayyorgalik ko'rish muhim o'rin tutadi degan xulosaga keldim. Bunday tashkiliy jarayoni ahamiyatini tushunib etish uchun o'ylaymanki dastlab, buxgalteriya sohasida murabbiy hisoblanmish – pedagog ma'ruza haqida ilmiy – uslubiy ma'lumotlga ega bo'lishi lozim.

Adabiyotlarda ma'ruza (arabcha, lekstiya (lotincha - "lectio") - o'qish) - o'quv materiallari, biror masala, mavzu kabilarning izchil, ma'lum bir tizimiga solingan bayonir deb talqin etiladi. Ma'ruza o'quv jarayonining asosiy bo'g'ini, oliy o'quv yurtida dars berishning asosiy shakllaridan biridir. U o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirishda katta rol o'ynaydi. Ma'ruzada mavzuning asosiy savollari ketma-ketlik asosida yuritiladi. "Buxgalteriyaning predmeti va vazifalari" mavzusi bo'yicha o'qiladigan ma'ruza faqatgina iqtisodiy rivojlanishning asosiy qonuniyatlarini ochib berishgina emas, fanning so'nggi yutuqlaridan foydalangan holda amaliyotda qanday ahamiyatga ega ekanligini, hayotda real muammolarni yechishdagi ahamiyatini ham ko'rsatishi kerak.

Ma'ruza ilmiy xarakterga ega bo'lishi, turli nazariy yo'nalishlar, ilmiy maktablarning asosiy g'oyalarini o'quvchilar onggiga etkazishi va olgan bilimni ishonchga aylantirishi kerak. Har qanday ma'ruzaning eng zarur sharti auditoriya

bilan kontaktga kirishishdir. Ma'ruzani ko'tarinki ruh bilan o'qish kerak.

Ma'ruza o'qish eng avvalo, unga tayyorlanishdan boshlanadi. Shuning uchun birinchi navbatda ma'ruza mavzusi bo'yicha adabiyotlar tanlash, hamda ular bilan tanishib chiqish kerak.

Ma'ruzalar o'z funkstiyasiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Kirish ma'ruzasi;
2. Yakunlovchi ma'ruza;
3. Mavzular bo'yicha muammoli ma'ruza;
4. Yo'l-yo'riq ko'rsatadigan ma'ruza;
5. Obzorli ma'ruza.

Ma'ruzalarning turlaridan qat'iy nazar barchasini funkstiyasiga ko'ra muammoli ma'ruza tarzida o'qish mumkin.

1. Kirish ma'ruzasi ma'lum bir mavzuni yoki muammoni o'rganishga bag'ishlangan ma'ruza bo'lib, unda ana shu masala, muammolar haqidagi fikrlar, ularning ijodiy tomonlari, kamchiliklari, yechilmagan muammolar ko'rsatiladi.

2. Yakunlovchi ma'ruza ma'lum bir mavzu muammosi yoki fanni o'rganib chiqib, uning yakuni bo'yicha o'tkaziladigan ma'ruzalar.

3. Mavzular bo'yicha muammoli ma'ruzalar belgilangan mavzu bo'yicha dars oldidan o'qituvchi muammoli savollar, topshiriqlar, masalalar, turli holatlar kabilarga oid o'tkaziladigan ma'ruzalar.

4. Yo'l-yo'riq ko'rsatadigan ma'ruza o'quvchilarga mustaqil ishlashni o'rgatishga qaratilgan ma'ruza bo'lib, unda ko'proq metodik maslahatlar beriladi. Tavsiya qilinadigan adabiyotlar, ularni mustaqil o'qish, ular ustida ishlash jarayonida diqqat qaratish lozim bo'lgan masalalar ko'rsatiladi.

5. Obzorli ma'ruza u yoki bu muammo, mavzu yoki ma'lum bir tizimga solingan savollarni ma'lum bir mantiqiy aloqadorlikda bayon qilishga qaratilgan ma'ruza bo'lib, ko'pincha oliy o'quv yurtlarida odatda yakuniy nazorat yoki imtihonlar oldidan o'tkaziladi.

Ma'ruza o'quvchilar bilan muloqotda bo'lishning alohida shakli bo'lib, uni boshqa hech qanday o'quv shakli bilan almashtirib bo'lmaydi. Ma'ruzaning oldiga

qo'yiladigan maqsad har xil bo'lib, bu maqsad maksimal darajada amalga oshishi uchun uning funkstiyalariga ahamiyat berish kerak.

Ma'ruzaning funkstiyalari quyidagilardan iborat:

1. Professional ta'lim berish va dunyoqarashni shakllantirish.

2. O'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish. Ularni axloqiy, ma'naviy jihatdan barkamol bo'lishi, mehnatga munosabati, sotsial-psixologik hislatlarini shakllantirish.

3. Bilim berish, o'rganayotgan fani bo'yicha axborot olish, olgan axboroti asosida tadqiqot o'tkazib, xulosa chiqarishga o'rgatish.


"Buxgalteriyaning predmeti va vazifalari" mavzusini o'rganish o'quvchilarning ijodiy fikrlarini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatadi. Ularni jamiyat rivojlanishining iqtisodiy qonun, tendenstiyalarini chuqur tushunishi, nazariy masalalar bilan amaliyotni bog'lash mahoratini hosil qilishlari uchun ma'ruza quyidagi asosiy talablarga javob berishi kerak.

Ma'ruza ma'lum bir yo'nalishga: iqtisodiyotning asosiy qonun, tendenstiyalari, prinstiplari, ijtimoiy taraqqiyotning muammolarini tahlil qilishga qaratilgan bo'lishi kerak. Yosh avlodning dunyoqarashini shakllantirish, hayot kechirish tarzini tanlashning tarbiyaviy ahamiyatini oshirishi lozim.

Ilmiyligi jihatidan nazariyaning asoslarini amaliyot bilan masalaning qo'yilishining ilmiyligi bilan hamda iqtisodiy nazariyaning yangi dolzarb masalalariga ijodiy yondoshish bilan nazariy dalillar mantiqiyliigi bilan uzviy birligi ta'minlanishi kerak.

Tajriba ko'rsatadiki, o'quvchiga deklarastiya, shiorlar emas, balki ishonchli dalillar, chuqur tahlil ko'proq ta'sir qiladi. Har qanday fan, jumladan "Asosiy vositalar tahlili" mavzusi ham ishonchli dalillar, ma'lumotlar, nazariy va amaliy xulosalarga tayanadi. Shuningdek, mavzuga oid texnika vositalaridan foydalanib, formulalar, diagrammalar, jadvallar, chizmalar ham mavzuni yoritib berishga xizmat qiladi.

“Buxgalteriyaning predmeti va vazifalari”⁵ 2.1.-jadval.



Buxgalteriya hisobining predmeti deganda umuman olganda korxonalar va tashkilotlarning xo'jalik faoliyati, ushbu faoliyatni tashkil etuvchi jarayonlar va ularni yuritilishini ta'minlovchi mablag'lar, mablag'larning tashkil topish manbalari, shuningdek xo'jalik faoliyatining natijalari tushuniladi.

Yuqoridagi ta'rifga asosan buxgalteriya hisobi predmetini ifodalovchi ob'ektlarni quyidagi to'rtta guruhga ajratish mumkin:

- Xo'jalik faoliyati;
- Xo'jalik aktivlari;

⁵ Muallif ishlanmasi

- Xo‘jalik aktivlarining manbalari;
- Xo‘jalik faoliyatining natijalari

3-chizmada buxgalteriya hisobi predmetini tashkil qiluvchi ob’ektlarning tasnifi va tarkibi ko‘rgazmali tarzda keltirilgan. Quyida ularning mohiyatiga to‘xtalamiz. *Xo‘jalik faoliyati*. Har qanday korxonaning xo‘jalik faoliyati deganda unda yuz beradigan ***ta‘minot, ishlab chiqarish*** va ***sotish jarayonlarining*** majmuasi tushuniladi.

Korxonada faoliyat ko‘rsatishi uchun unga mehnat predmetlari va vositalari, ishchi kuchi, pul mablag‘lari va boshqa ta‘minotlar kerak bo‘ladi. **Ta‘minot** deb atalmish bu jarayonni, odatda, korxonaning maxsus ta‘minot bo‘limi xodimlari olib boradilar. Ushbu jarayonsiz faoliyatning keyingi jarayonlari, ya’ni ishlab chiqarish va sotish jarayonlari amalga oshishi mumkin emas. Shuning uchun korxonaning doimiy faoliyat ko‘rsatishi aynan ta‘minot jarayonining uzliksizligiga bevosita bog‘liqdir. *Ishlab chiqarish jarayoni* deganda ishchi kuchi va mehnat vositalari yordamida mehnat predmetlaridan yangi mahsulotlar yaratish tushuniladi. Ushbu jarayon o‘z ichiga turli texnologik operatsiyalarni oladi, bu operatsiyalarni bajarish esa turli harajatlarni amalga oshirishni ta’qozo etadi. Ishlab chiqarish jarayonining pirovard natijasi bo‘lib tayyor mahsulot hisoblanadi. Tayyor mahsulotni ishlab chiqarishga ketgan moddiy harajatlar, mehnatga xaq to‘lash harajatlari, ishlab chiqarish vositalarining amortizatsiya harajatlari va boshqa ushbu jarayonga tegishli harajatlar ishlab chiqarish harajatlarini, yaratilgan mahsulot qiymatiga kiritilgan harajatlar esa tayyor mahsulotning tannarxini tashkil qiladi. Shuni ta’kidlash joizki korxonadan tomonidan bajarilgan ishlar, masalan qurilish-montaj ishlari, ko‘rsatilgan xizmatlar, masalan turistlarga ko‘rsatilgan yotoqxonalar va boshqa xizmatlar yoki auditorlik xizmati ham ishlab chiqarish jarayoni hisoblanadi. Bunday ishlab chiqarish jarayonining natijasi bo‘lib bajarilgan ish yoki ko‘rsatilgan xizmat hajmi hisoblanadi, ularga sarflangan harajatlar bajarilgan ish yoki xizmatning tannarxini tashkil qiladi. *Sotish jarayoni* deganda ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan tayyor mahsulotlarni, bajarilgan ishlarni, ko‘rsatilgan xizmatlarni

haridorlarga sotish tushuniladi. Ushbu jarayonda tayyor mahsulot, ish, xizmat pulga aylanadi, sotuvchi va sotib oluvchi o'rtasida o'zaro hisob-kitoblar bo'yicha qarzlarni vujudga keladi. Sotish jarayonida korxonaning yalpi tushumi, sotish tannarxi, sotishdan olingan foyda yoki zarari, sotish jarayonining harajatlari, unga doir soliqlar va boshqa ko'rsatkichlar hisobga olinadi.

Ma'ruzaning ilmiyligi materialni bayon qilishning izchilligi, savollarni aniq, tushunarli qo'yilishini nazarda tutadi. Ilmiy-iqtisodiy jarayonlar, iqtisodiy hayotni tahlil qilishda tarixiylikka amal qilishni talab qiladi.

Ma'ruzaga tayyorlanish jarayonida o'qituvchi mavzu bo'yicha savollarni qanday bayon qilishni, qanday uslublar qo'llashini ko'z o'ngiga keltirishi kerak. Mavzu bo'yicha adabiyotlarni, zarur ma'lumotlarni ana shundagina to'g'ri tanlashi mumkin. Yana shuni ham hisobga olishi zarurki, agar o'qituvchi zarur dalillar, ma'lumotlarga ega bo'lsada, ularni ishonarli, asoslangan holda bayon qilmasligi, fandagi dolzarb savollarga javob berishdan chetlab o'tishi yoki chetga chiqishi mumkin. Bu o'quvchilarda ma'ruzadan qoniqmaslikka, uning ishonchliligi va tarbiyaviy ahamiyatini tushuntirishga olib keladi.

Har qanday ma'ruzada faktlarga nazariy qoidalarini mohiyatini ochishga xizmat qiladigan darajada o'rin berilishiga e'tibor berishi kerak. Agar nazariya bilan faktlar o'rtasida optimal nisbat buzilsa, o'quvchi faktlarni aralashtirishni boshlaydi. Umumlashtirish va xulosalarga befarqlik bilan qarashni boshlaydilar. Vaholangki, ma'ruzada asosiy maqsad nazariy konstepstiyalarni o'quvchilar ongiga etkazishdir.

Ma'ruzada negativ faktlarni ham to'g'ri sharhlash, ularning qanday oqibatlariga olib kelishi, bartaraf qilish yo'llari haqida to'xtash kerak. Ma'ruzachining vazifasi negativ faktlarni e'lon qilish emas, balki ularni tahlil qilish, xulosa chiqarishga o'rgatishdir.

Faktlar ma'ruzaga jonli mazmun, hayot nafasini baxsh etadi, uning ahamiyati bu jihatdan bebahodir.

Ma'ruzani nazariy va amaliy materiallarini o'quvchilarga etkazishning umumiy usuli sifatida qarasaq, uni qay tarzda o'quvchiga etkazish muammosi

kelib chiqadi. Dalillar va nazariy konstepstiyani o'quvchilarga etkazishda asosan ikki uslubdan foydalaniladi: induktiv va deduktii.


Induktiv uslub ma'ruzada xususiylkdan umumiylikka, deduktiv uslub esa, umumiylikdan xususiylk tomon bayon qilishni ifodalaydi. Induktiv uslub dalillar, xususiylk, umumiy xulosa, nazariy qoidalar, aniq faoliyat uchun amaliy xulosalar tarzida bayon qilinsa, deduktiv uslub nazariy xulosa, umumiy, xususiylk faoliyat uchun amaliy xulosa tarzida bayon qilinadi.

Ma'lumki, "Aqliy hujum" metodi - biror muammo bo'yicha ta'lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadigan metoddir. "Aqliy hujum" metodining yozma va og'zaki shakllari mavjud. Og'zaki shaklida ta'lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta'lim oluvchilarning har biri o'z fikrini og'zaki bildiradi. Ta'lim oluvchilar o'z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga ta'lim oluvchilar o'z javoblarini qog'oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko'rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. "Aqliy hujum" metodining yozma shaklida javoblarni ma'lum belgilar bo'yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to'g'ri va ijobiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o'rgatadi.

Quyida (Chizma) "Aqliy hujum" metodining tuzilmasi keltirilgan

Aqliy hujum" metodining tuzilmasi⁶

2.2.-jadval.



⁶ Rashidov H.F. va b

"Aqliy hujum" metodidan foydalanilganda ta'lim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo'ladi, shu jumladan ta'lim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ta'lim oluvchilar o'z fikrini faqat og'zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta'lim oluvchilarda turli g'oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod ta'lim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

"Aqliy hujum" metodi ta'lim beruvchi tomonidan qo'yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

Ta'lim oluvchilarning boshlang'ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo'yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.

"Aqliy hujum" metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog'lash maqsad qilib qo'yilganda - yangi mavzuga o'tish qismida amalga oshiriladi.

O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo'yilganda-mavzudan so'ng, darsni mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

"Aqliy hujum" metodini qo'llashdagi asosiy qoidalar:

1. Bildirilgan fikr-g'oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.
2. Bildirilgan har qanday fikr-g'oyalar, ular hatto to'g'ri bo'lmasa ham inobatga olinadi.
3. Har bir ta'lim oluvchi qatnashishi shart.
 1. Ta'lim oluvchilarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo'yicha o'z javoblarini (fikr, g'oya va mulohaza) bildirishlari so'raladi;
 2. Ta'lim oluvchilar savol bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishadi;
 3. Ta'lim oluvchilarning fikr-g'oyalari (magnitafonga, videotasmaga, rangli qog'ozlarga yoki doskaga) to'planadi;
 4. Fikr-g'oyalar ma'lum belgilar bo'yicha guruhlanadi;
 5. Yuqorida qo'yilgan savolga aniq va to'g'ri javob tanlab olinadi.

“Aqliy hujum” metodining afzalliklari:

- natijalar baholanmasligi ta’lim oluvchilarda turli fikr-g’oyalarning shakllanishiga olib keladi;

- ta’lim oluvchilarning barchasi ishtirok etadi;

- fikr-g’oyalarning vizuallashtirilib boriladi;

- ta’lim oluvchilarning boshlang’ich bilimlarini tekshirib ko’rish imkoniyati mavjud;

- ta’lim oluvchilarda mavzuga qiziqish uyg’otadi. "Aqliy hujum" metodining kamchiliklari:

- ta’lim beruvchi tomonidan savolni to’g’ri qo’ya olmaslik;

- ta’lim beruvchidan yuqori darajada eshitish qobiliyatining talab etilishi.

Yuqorida mavzuning o’ziga xos xususiyatlarini ma’ruza darsini o’tish jarayonida hisobga olishga oid ma’lumotlar berildi. Xususan, ma’ruza darsi haqida, aqliy hujum metodi haqida ilmiy – uslubiy ma’lumotlar berildi.

III-bob. “Buxgalteriyaning predmeti va vazifalari” mavzusini o`rganishda charxpalak texnologiyasini qo`llash amaliyoti

3.1. “Charxpalak” pedagogik texnologiyasini tasnifi va xususiyatlari

2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishni beshta ustuvor yo`nalishlari bo`yicha Harakatlar Strategiyasi dasturida yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga ijodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo`ljalni to`g`ri o`l bilish mahoratiga ega bo`lgan, o`z istiqbol vazifalarini ilgari ko`rish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo`naltirilgandir.

Tadqiqotimizning ikkinchi bobida mavzuning o`ziga xos xususiyatlarini ma`ruza darsini o`tish jarayonida hisobga olish hamda “Mavzuni o`rganishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish zaruriyati” haqidagi ilmiy-uslubiy ma`lumotlar o`z ifodasini topgan edi. Endi, quyida “Mavzuni o`rganishda tarqatmali materiallar yordamida “Charxpalak” texnologiyasiga tasnif va uning xususiyatlari haqidagi uslubiy ma`lumotlar beriladi. Ushbu ma`lumotlarni bo`lajak iqtisodchi-pedagoglar uchun juda muhimdir. Chunki, ular mazkur ma`lumotlarni bilishi va ulardan dars jarayonida samarali foydalana olishlari kerak bo`ladi.

Endi seminar mashg`ulotining o`tkazilish tartibi haqida so`z yuritaladi. So`ngra, seminar mashg`uloti jarayonida tarqatma materiallar va ularning qonun-qoidalari xususida fikr bildiriladi. “Charxpalak” metodi va uning o`tkazilish tartibi haqida ham mazkur paragraf mazmunida berilgan. Quyida shular xususida so`z yuritiladi.

Ma`lumki, seminar mashg`uloti o`quvchilarni bilim olishlari, uni puxta o`zlashtirishlari va olgan bilimlarini kelgusida real hayotda ko`llashni o`rganishlarida alohida o`rin tutadi. SHuning uchun ham seminar mashg`ulotini qiziqarli, o`quvchilarni faol katnashishlarini ta`minlaydigan usullarini ko`llab dars o`tish muhim ahamiyatga ega.

Ma'ruzada odatda ko'proq bayon qilish yetakchi rol o'ynaydi. O'quvchilar darsda passiv rol o'ynashadi. Darsda turli uslublarni qo'llab ularning faolligini ta'minlash imkoniyati keng. Ma'ruza mashg'uloti asosan monolog tarzida bayon qilinsa, seminar mashg'uloti turli-tuman dialog asosida olib boriladi. Odatda seminar mashg'ulotida o'quvchilarning bilimi, o'z ustida ishlash darajasi aniklanadi va nazorat qilinadi.

Seminar (lotincha- seminarium - manba, ko'chma ma'noda - maktab) - o'quv amaliy mashg'ulot shakllaridan biri. Asosan oliy o'quv yurtlarida, ilmiy to'garak, anjumanlarda qo'llaniladi.

Ma'lumki, ta'limning seminar shakli qadimgi Yunon va Rim maktablarida paydo bo'lgan. Keyinchalik G'arbiy Evropa universitetlarida rivojlantirilgan. Bu universitetlarda seminar asosan, talabaning adabiyotlar, manba ustida ishlash vazifasini o'tagan. XX asr boshlarida seminar darslari o'quvchilarning umumiy dunyoqarashini kengaytirishda, ularni muayyan fan tarixidagi muhim muammo va tadqiqotlar bilan tanishtirishda katta rol o'ynay boshlagan.

Ma'lumki, seminarining asosan uch turi mavjud:

1. O'rganilayotgan fan yoki kursni chuqur o'rganishga yordam beradigan seminar darslari;
2. Ayrim muammo, asosiy yoki muhim mavzuni o'rganish uchun o'tkaziladigan seminarlar;
3. Tadqiqot xarakteridagi seminarlar.

O'quv jarayonini tashkil etishda seminar darslari alohida o'rin tutadi. Seminar o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlashni ta'minlovchi, ijodiy qobiliyatlarini namoyon qiluvchi o'quv jarayoni shaklidir. Seminar mashg'ulotlarining maqsadi o'quvchilarning chuqur bilim olishini ta'minlash, olgan bilimlarini real hayotda qo'llashga o'rgatishdir. Buning uchun o'quvchi olgan axborotlarini tahlil qilish, ilmiy tadqiqot o'tkazish, taqqoslash, xulosa chiqarishni bilishi kerak. Bunday mahoratga ega bo'lishga ko'p jihatdan seminar mashg'uloti yordam beradi.

Seminar mashg'ulotining oldiga qo'yilgan bosh maqsadni amalga oshirish uchun darsni oldiga qo'yilgan kator vazifalarni amalga oshirish kerak. Bu vazifalar seminar darslari bajaradigan funkstiyalarda o'z ifodasini topadi.

- Seminar mashg'uloti bir qator funkstiyalarni bajaradi:
- O'quvchilarga professional ta'lim berish va tarbiyalash;
- Mustaqil ishlash malakasini o'stirish;
- O'quvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish;
- Nutq so'zlash, ilmiy munozaralar olib borishga o'rgatish;
- Mustaqil fikr yuritish va o'z fikrini o'rtoqlashishga o'rgatish;
- O'rtoqlari fikrini tanqidiy nuqtai nazardan baholashga o'rgatish;
- O'quvchilar bilimini nazorat kilish va baholash.

Inson esda saqlash xotirasi - bu bizning biokompyuterimiz. Odatda, olingan axborotning juda ko'pi qiska muddatgina yodimizda saqlanadi.

Boshqa yangi axborotni qabul qilar ekanmiz, avvalgi axborot xotiradan ko'tarilib ketadi. Axborotlar nixoyatda xilma-xil bo'lib, inson har kuni o'z hayotida qabul qiladigan axborotlar miqdori, turlicha qabul qilinishi, xotirada saqlanib qolishi jihatidan bir-biridan farq qiladi. Psixologlarning fikricha axborotning xotirada uzoq saqlanib qolishi uchun, u go'yoki miyamizda filtdan - boshqacha aytganda elakdan o'tish, saralanishi go'yoki xotira qurilmasiga o'tkazilishi kerak ekan. Axborotlar saralanib, oxir-oqibat alohida u yoki bu tomoni bilan ajralib turadiganlarigina xotiraga o'tar ekan. Uni taxminan ana bu shartli tasvir orqali ifodalash mumkin.

Uzoq muddat xotirada qoladigan axborotlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Nihoyatda kiziqarliligi, jo'shqinligi va boshqa shu kabi xususiyatlari bilan ajralib turuvchi axborotlar;
- Tasavvur, xis-tuyg'u va shu kabi bir-birini eslatadigan o'zaro bog'lanishdagi axborotlar;
- Inson tomonidan tushinib, mohiyatiga etilgan axborotlar;

- Faollik bilan qabul qilingan o'rganilgan, masalan takrorlanib turadigan axborotlar.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, olimlarning ilmiy tadqiqoti shuni ko'rsatadiki, oddiy inson odatda axborotlarni quyidagicha o'zlashtirar ekan:

- 20% - eshitganini xotirada saqlab koladi;

- 30% - ko'rganini o'zlashtiradi;

- 50% - eshitish va ko'rish orkali bilib oladi;

- 70% - o'zi tushunib gapirgani, eshitgani va ko'rgani natijasida o'zlashtiradi;

- 100% - shu ishni bajarishi, gapirishi, eshitishi va ko'rishi orqali o'zlashtiradi.

- Lekin, bilimni o'zlashtirish bilan bir qatorda uni yodda saqlash, undan foydalanish, takrorlab turish muhim ahamiyatga ega. Olingan bilim undan foydalanilmasa, takrorlab turilmasa xotiradan ko'tariladi. Xalqimiz "Takrorlash – bilimning onasidir" deb bejiz aytishmagan.

Olingan bilimdan foydalanib takrorlab turish, yodda saqlash yoki undan foydalanmaslik, takrorlamaslik oqibatida olingan bilim aktiv (faol) bilim zahirasi yoki passiv (sust) bilim zahirasi ga aylanadi.

Bilimni takrorlash tufayli yoddan ko'tarilishining oldini olish mumkin. Bulardan shunday xulosa chiqarish mumkin: o'quvchilarning eng avvalo, o'quv materialini o'zlashtirishi, yodda qoldishi uchun olinadigan axborotni iloji boricha eshitish va ko'rish orqaligina emas, balki o'zi gapirishi, o'z faoliyatida sinab ko'rish orkali etkazish katta ahamiyatga ega ekan. Bunga erishishning yo'li seminar darslarini turli-tuman uslublar orqali olib borishdir.

Aynan seminar mashg'ulotida o'quvchilar ma'ruza, kitob, jurnal va xokazolar orqali olgan axborotlari, bilimlarini tushungan holda gapirib berish, uni modellashtirish asosida sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Seminar mashg'ulotini o'tkazishda qo'llanadigan uslublar turli-tuman bo'lib, u yoki bu uslubni tanlash, avvalo o'rganilayotgan fanning xususiyatiga; ikkinchidan esa, o'tilayotgan mavzuga, uchinchidan, seminar mashg'ulotida

qo'yilgan maksadga; to'rtinchidan, tanlangan uslubni qo'llash imkoniyatiga bog'liq.

Hozirgi paytda "Buxgalteriyaning predmeti va vazifalari" mavzusini o'rganishda nisbatan keng qo'llaniladigan uslublardan ekspress savol-javob savollar tizimiga asoslangan muhokama, seminar mashg'uloti rejasi bo'yicha atroflicha suhbat, modellashtiruvchi o'yin, doklad va reffatlarni muhokama qilish, masal, mashk, test echish va ularning natijasini muxokama qilish vaboshkalfni ko'rsatish mumkin.

Seminar mavzusi ma'ruza mavzusi bilan bir xil bo'lishi shart emas. Ayrim paytlarda mavzudagi ayrim savollarni ma'ruzada ko'rilsa, ayrimlarini seminarda muhokama qilish mumkin. Hozirgi paytda shunday tajriba amal qiladiki, maruzada ko'rilgan mavzu albatta seminarda xam muhokama kilinadi. Lekin, ma'lum sharoitda seminar mashg'uloti va uning mavzusiga boshkacha yondoshish mumkin. Aytaylik, mustaqil o'rganish uchun turli adabiyotlar, boshka axborot manbalari mavjud bo'lsa, seminarda mustaqil o'rganilgan mavzugi muhokama qilish mumkin. Ayniqsa, mavzuni o'rganish uchun vaqt etishmagan bunday usul qo'l keladi.

Ma'lumki, o'tilayotgan darsda o'quvchilarga axborot etkazish, ularni darsni puxta o'zlashtirishlari va faol qatnashishlarini ta'minlashda tarqatma materiallarning ahamiyati katta.

Darslarda tarqatma materiallardan foydalanish tobora keng qo'llanilmoqda. Tarqatiladigan materialning muhim ijobiy tomoni shundaki, u bevosita o'quvchining qo'lida bo'lib, uzoqdan ko'rsatiladigan ko'rgazmali qurollarga xos kamchiliklardan holi.

Tarqatma materiallar - ta'lim oluvchilar uchun o'rganilayotgan mavzuga oid asosiy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan, hajmi uncha katta bo'lmagan (1-2 varaq) yozma o'quv materiali hisoblanadi.

Tarqatma materiallarni maqsadi, mazmuni jihatdan: a) axborot beruvchi, b) topshiriq beruvchi, v) bilimni nazorat qiluvchi guruhlariga ajratish mumkin.

Axborot ko'lamini katta bo'lgani sababli qisqa vaqt ichida barcha axborotni o'quvchilarga to'liq etkazib berish qiyin. Bunday paytda axborotni tarqatma material sifatida etkazib berish muhim rol o'ynaydi. Bunda gaplar qisqacha yozilgan matnlar bo'lib, darsga tayyorgarlik ko'rishda, dars davomida yoki bilimlarni mustahkamlashda foydalanish uchun ta'lim oluvchilarga taqdim etiladi.

Tarqatma materiallardan ko'rgazmali qurol sifatida ham foydalanish mumkin. Ayniqsa, iqtisodiy fanlarni o'rganishda turli jadval, grafik, chizmalardan juda ko'p foydalaniladi. Ularni plakat sifatida tayyorlash o'quvchilar uchun anchagina noqulay. Undan tashqari:

- O'quvchilarga raqamlarda ifodalangan ma'lumotlarni og'zaki etkazish ularni chalkashtirib yuborishi bilan birga, eslab qolishlariga ham imkon bermaydi.

- Miqdor jihatdan ko'p ma'lumotlarni doskaga yozib, tushuntirish uchun ko'p vaqt talab qilinadi. Doskaga yozish paytida o'qituvchi bilan ta'lim oluvchilar o'rtasida aloqa uziladi.

- Bu jihatdan ko'rgazmali quroldan namoyish qilinuvchi hamda tarqatma material sifatida foydalanish qator afzalliklarga ega.

O'qituvchi raqamlarda, grafik, formulalarda ifodalangan axborotni namoyish qilinayotgan materialga qarab tushuntiradi. O'quvchilar esa ham namoyish qilinayotgan materialga ham, qo'llaridagi tarqatma materialga qarashadi. Ma'lumotlar o'quvchilar qo'lida bo'lishi, ularni ko'rib turishi, tushunishi, anglashini osonlashtiradi.

Tarqatma materiallar o'quvchilarga topshiriqlarni xamkorlikda ishlash imkoniyatini ham beradi. Ayniqsa, buning uchun ishchi varaqalar tayyorlanishi va ular asosida dars jarayonida juft bo'lib yoki individual tarzda ishlashni tashkil qilish, shubhasiz o'quvchilarni darsga faol qatnashishlarini ta'minlaydi. Ular masala, mashq, turli jadvallarni to'ldirish va hokazolar tarzidagi turli topshiriqlar bo'lishi mumkin.

Tarqatma materiallar ta'lim oluvchilarni bilimini tekshirish nazorat qilishda ham keng qo'llaniladi. Bunda, nazorat varaqalari tarzida tayyorlangan test savollari, masala va mashqlar bo'lishi mumkin.

Quyida tarqatma materiallarni tayyorlash va qo'llash qoidalari xususida so'z yuritiladi:

- Ta'lim oluvchilarga haddan tashqari ko'p tarqatma materiallar bermang.
- Bir betda 80 tadan ko'p belgi (harf, qavs, undov belgisi va hokazo) ishlatmang.

• Sarlavhalarni bosh harflar bilan yozing, bir matn uchun ikki-uchta tarqatma material tayyorlasangiz, ularga nom-kod bering. Bu ularni ajratishni osonlashtiradi.

- Matn shrifti 12 dan kichik bo'lmasligi kerak.
- Matnlar tushunarli, qisqa va oddiy bo'lishi kerak.
- Varaq dizayni e'tiborni o'ziga tortishi kerak.

Tarqatma materiallarda:

- o'tiladigan mavzuning asosiy mazmunini berish;
- olingan axborotni dars davomida va darsdan tashqarida talabalar bilan mustaqil muhokama qilish;

- ta'lim oluvchilar diqqatini mustaqil fikrlash, ijodiy izlanishga qaratish;
- o'quvchi-o'quvchilarni darsga faol jalb qilish;
- o'quvchi-o'quvchilarning olgan bilimlarini nazorat qilish vasinash;

Bularning hammasi dars jarayonida tarqatma materiallardan keng foydalanishning zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Shu bilan birga dars jarayonida tarqatma materiallardan foydalanishda o'ziga xos kamchiliklar ham mavjud.

• Tarqatma materiallar tayyorlash o'qituvchidan ko'p kuch va vaqt, yuksak mahorat talab qiladi.

• Bir kishiga bitta tarqatma materiallar bo'lishi kerak. Bu qo'shimcha katta moddiy xarajatni talab qiladi.

• Tarqatma material asosida o'zaro muhokama cho'zilib, mavzuning boshqa qismlariga, savollariga e'tibor pasayishiga olib kelishi mumkin.

Ayrim kamchiliklariga qaramay, darsda tarqatma materiallardan foydalanishning afzalligi ustun.

Tarqatma materiallardan barcha metodlar asosida dars o'tishda keng foydalanish mumkin.

Bo'lajak o'qituvchi seminar mashg'ulotining o'tkazilish tartibi haqida ma'lumotlarni bilib olganidan so'ng, tarqatmali materiallar haqida ham ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Shu bois, quyida tarqatmali materiallar va ularni tayyorlash, qo'llash xususidagi ilmiy – nazariy ma'lumotlar berildi.

Yuqorida seminar mashg'uloti va tarqatma materiallar xususida ilmiy-nazariy ma'lumotlar berildi. Endi, quyida "Charxpalak" metodi haqida fikr va mulohazalar yuritildi. Xususan, uning tasnifi, maqsadi, qo'llanilish, unda foydalaniladigan vositalar hamda "Charxpalak" metodining o'tkazilish tartibi haqida uslubiy ma'lumotlar berildi.

Quyida "Charxpalak" metodi (texnologiyasi)ning o'tkazilish tartibi xususida fikrlar bildiriladi:

Texnologiyaning tavsifi. Ushbu texnologiya talaba (yoki o'quvchi)larni o'tilgan mavzularni yodga olishga, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to'g'ri javob berishga va o'z-o'zini baholashga o'rgatishga hamda qisqa vaqt ichida o'qituvchi tomonidan barcha talaba (yoki o'quvchi)larning egallagan bilimlarini baholashga qaratilgan.

Texnologiyaning maqsadi: talaba (yoki o'quvchi)larni dars jarayonida mantiqiy fikrlash, o'z fikrlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o'zlarini baholash, yakka va guruhlarda ishlashga, boshqalar fikriga hurmat bilan qarashga, ko'p fikrlardan keraklisini tanlab olishga o'rgatish.

Texnologiyaning ko'llanishi: texnologiya o'quv mashg'ulotlarining barcha turlarida dars boshlanishi yoki dars oxirida yoki o'quv predmetining biron bir bo'limi tugallanganda, o'tilgan mavzularni talaba (yoki o'quvchi)lar tomonidan o'zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash yoki oraliq va yakuniy nazorat o'tkazish uchun mo'ljallangan. Ushbu texnologiyani mashg'ulot jarayonida yoki uning bir qismida yakka, kichik guruh va jamoa shaklida tashkil etish mumkin.

Mashg'ulotda foydalaniladigan vositalar: tarqatma materiallar, rangli qalam (yoki flomaster)lar.

Izoh: reja bo'yicha belgilangan mavzu asosida hamda o'qituvchining qo'ygan maqsadi (tekshirish, mustahkamlash, baholash)ga mos tayyorlangan tarqatma materiallar (agar yakka tartibda o'tkazish mo'ljallangan bo'lsa, guruh o'quvchilari soniga, agar kichik guruhlarda o'tkazish belgilangan bo'lsa, u holda guruhlar soniga qarab tarqatma materiallar tayyorlanadi).

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

- talaba (yoki o'quvchi)larni (sharoitga qarab) guruhlariga ajratish;
- talaba (yoki o'quvchi)mashg'ulotni o'tkazishga qo'yilgan talablar va qoidalar bilan tanishtirish;
- tarqatma materiallarni guruh a'zolariga tarqatish.
- guruh a'zolari tomonidan yakka holda mustaqil ravishda tarqatma materiallardagi vazifalar bajariladi;
- har bir guruh a'zosi o'zi ishlagan tarqatma materialining o'ng burchagiga guruh raqamini yozadi, chap burchagiga esa o'zining biron-bir belgisini chizib qo'yadi;
- vazifa bajarilgan tarqatma materiallar boshqa guruhlariga «Charxpalak aylanmasi» yo'nalishida almashtiriladi;
- yangi guruh a'zolari tomonidan berilgan materiallar o'rganiladi va o'zgartirishlar kiritiladi;
- jamoalar tomonidan o'rganilgan va o'zgartirishlar kiritilgan materiallar yana yuqorida eslatilgan yo'nalish bo'yicha guruhlararo almashtiriladi (ushbu jarayon guruhlar soniga qarab davom ettiriladi);
- materiallarni oxirgi almashishdan so'ng har bir guruh va har bir guruh a'zosi o'zlari ilk bor to'ldirgan materiallarini (guruh raqami va o'zlari qo'ygan belgilari asosida) tanlab oladilar;
- har bir guruh a'zosining o'zlari belgilagan javoblariga boshqa guruh a'zolarining tuzatishlarini taqqoslaydilar va tahlil qiladilar;

- o'qituvchining tarqatma materialda berilgan vazifalarini o'qiydi va jamoa bilan birgalikda to'g'ri javoblarni belgilaydi;

- har bir talaba (yoki o'quvchi) to'g'ri javob bilan belgilangan javoblar farqlarini aniqlaydilar, kerakli ballni to'playdilar va o'z-o'zini baholaydilar.

Izoh: tarqatma materialda talaba (yoki o'quvchi)lar belgilagan to'g'ri javoblar bilan o'qituvchi hamkorligida aniqlangan to'g'ri javoblarning farqi 55 foizdan yuqori bo'lsa, talaba (yoki o'quvchi) ushbu o'quv materialini o'zlashtirgan, undan kam bo'lsa o'zlashtira olmaganligini bildiradi. Masalan, vazifalar soni 30 ta bo'lib, javoblarning 17-20 tasi to'g'ri belgilangan bo'lsa, talaba (yoki o'quvchi) ushbu vazifani bajargan va o'quv materialini o'zlashtira olgan, agar undan kam bo'lsa o'zlashtira olmagan hisoblanadi. Shu bilan birga, javoblariing 21-24 tasi to'g'ri belgilangan bo'lsa talaba (yoki o'quvchi) materiallarni o'zlashturgan darajasi «yaxshi» bahoga, 25-30 tasi to'g'ri bo'lsa «a'lo» bahoga o'zlashtirgan deb hisoblanadi.

- talaba (yoki o'quvchi)lar o'z baholari yoki ballarini belgilab olishgach, o'qituvchi vazifa bajarilgan kog'ozlarni yig'ib oladi va baho (ballar)ni guruh jurnaliga ko'chirib qo'yadi.

«Charxpalak» texnologiyasidan foydalangan holda mashg'ulot o'tkazish uchun talaba (yoki o'quvchi)larga quyidagicha vazifa berish mumkin. Vazifa uchun zarur bo'lgan tarqatma materialni ilovada keltiramiz.

Vazifa. O'qituvchining muomala va munosobatni boshqarishdagi harakatlari qaysi boshqaruv usuliga mansub ekanligini aniqlang va ularga beradigan tavsiflarini ilovada keltirilgan jadvalga kiriting.

Yuqorida mavzuni seminar mashg'uloti jarayonida o'tishda "Charxpalak" metodini qo'llashga oid ma'lumotlar berildi. Xususan, tarqatma materiallar xususida ma'lumotlar berildi. Chunki, ushbu ma'lumotlar "Charxpalak" metodini qo'llashda muhim didaktik vosita hisoblanadi.

Quyida mavzuning o'ziga xos xususiyatlaridan hisoblangan "Buxgalteriyaning predmeti va vazifalari" mavzusi xususida fikr yuritiladi.

Har qanday jamiyatni rivojlanishi uni boshqarishni taqozo etadi. Boshqarish,

o'z navbatida, jamiyatning turli tarmoq va sohalarida yuz bergan va berayotgan jarayonlar, xo'jalik faoliyatini olib borayotgan sub'ektlarning mablag'lari, ularni tashkil etish manbalari, erishayotgan natijalari va boshqa jihatlari to'g'risidagi axborotlarni mavjudligiga bog'liq bo'ladi. Bunday axborotlarni o'zida mujassamlashtiruvchi vosita bo'lib xo'jalik hisobi hisoblanadi.

Xo'jalik hisobi negizida, ko'rinib turibdiki, «xo'jalik» va «hisob» so'zlari yotadi.

«**Xo'jalik**» deganda ma'lum maqsadlarga yo'naltirilgan, o'zining bazisi va ustqurmasiga ega bo'lgan sub'ektlar tushuniladi. Xo'jalik sifatida qaraladigan sub'ektlar bo'lib bir butun mamlakatning o'zi va uning turli tarkibiy bo'linmalari, masalan, tarmoqlari, sohalari, mintaqalari, hududlari, vazirliklar, birlashmalar, korxonalar hisoblanadi. Mamlakat doirasidagi xo'jalik xalq xo'jaligi, uning eng qo'yi bo'g'inidagi xo'jalik korxonalar xo'jaligi deb ataladi. Iqtisodiyotning yuqori va qo'yi bo'g'inlari o'rtasidagi xo'jaliklarga tarmoqlar, sohalar, birlashmalar, viloyatlar, tuman va shaharlar xo'jaliklari kiradi.

«**Hisob**» - bu xo'jalikda yuz bergan va berayotgan hodisa va jarayonlar, ularning natijalari to'g'risidagi axborotlarni yig'ish, qayd etish, guruhlash va uzatish tizimi. Demak, hisobning asosiy mahsuli bo'lib axborot, hisob yuritishning asosiy maqsadi bo'lib, bu axborotlarni aniq, to'liq va o'z vaqtida yig'ish, qayd etish, guruhlash va foydalanuvchilarga yetkazib berish hisoblanadi.

Shunday qilib, ikki so'z yig'indisidan tashkil topgan «xo'jalik hisobi» xalq xo'jaligining turli bo'g'inlarida yuz bergan va berayotgan hodisa va jarayonlar, ularni natijalarini soniy va sifat jihatdan harakterlovchi axborotlarni yig'ish, qayd etish, guruhlash va uzatish tizimidir.

Xo'jalik hisobini u yoki bu belgilariga qarab turli turlarga ajratish mumkin.

Xo'jaliklarni moliyalashtirilishiga ko'ra ularda yuritiladigan hisobni ikkiga bo'lish mumkin: korxonalar hisobi, byudjet hisobi.

Korxonalar deganda o'z-o'zini mablag' bilan ta'minlaydigan, mustaqil faoliyat yuritadigan xo'jalik tushuniladi. Ularga zavod va fabrikalar, firmalar, shirkatlar, jamoa xo'jaliklari, qurilish tashkilotlari, banklar va boshqalar kiradi. Ushbu

xo'jaliklarda yuritiladigan hisob korxonasi hisobi deb ataladi.

Byudjet hisobi deganda, davlat tomonidan moliyalashtiriladigan muassasalarda yuritiladigan hisob tushuniladi. Bunday muassasalarga maorif, sog'liqni saqlash, madaniyat va boshqa ijtimoiy soha muassasalari kiradi.

Xalq xo'jaligi sohasidagi ko'ra xo'jalik hisobi alohida shu sohasi hisobidan iborat bo'ladi, masalan, sanoat sohasi hisobi, qishloq xo'jaligi sohasi hisobi, savdo sohasi hisobi, maorif sohasi hisobi va boshqalar.

Axborot foydalanuvchilariga ko'ra xo'jalik hisobi ichki va tashqi hisobga bo'linadi.

Ichki hisob deganda faqat xo'jalikning o'zida yuritiladigan hisob tushuniladi. Ichki hisob adabiyotlarda turlicha nomlangan, masalan, operativ-texnik hisob, boshqaruv hisobi, ishlab chiqarish hisobi.

Operativ-texnik hisob deganda xo'jalik bo'limlari tomonidan u yoki bu maqsadda yuritiladigan tezkor hisob tushuniladi. Kadrlar bo'limini xodimlarni ishga o'z vaqtida kelishi va ketishining operativ hisobi, smena boshlig'ini yoki masterining stanoklarni ish holati hisobi va boshqalar operativ-texnik hisobga misol bo'la oladi.

Boshqaruv hisobi – bu xo'jalik rahbariyati talablariga ko'ra boshqaruvga tegishli qarorlarni qabul qilish maqsadida batafsil (analitik) tarzda yuritiladigan hisob tizimi. Bunday hisobni xo'jalikning hamma bo'limlari olib borishlari mumkin.

Ishlab chiqarish hisobi – bu xo'jalikni ishlab chiqarish jarayonlari va ularning natijalarini u yoki bu usullarda aks ettiruvchi hisob tizimi. Odatda, ishlab chiqarish hisobi negizida mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish usullari yotadi, masalan, normativ, reja, haqiqiy tannarx usullari.

Tashqi hisob deganda xo'jalik faoliyati to'g'risidagi axborotlarni tashqi axborot foydalanuvchilarga taqdim etuvchi hisob tizimi tushuniladi. Tashqi hisobga qo'yidagilarni kiritish mumkin:

- Moliyaviy hisob
- Statistika hisobi

Moliyaviy hisob deganda xo‘jalik moliyaviy faoliyati to‘g‘risidagi axborotlarni asosan tashqi foydalanuvchilar uchun taqdim etuvchi hisob tizimi tushuniladi. Moliyaviy hisob tashqi foydalanuvchilar uchun asosan hisobotlar ko‘rinishida taqdim etiladi. Moliyaviy hisob ma‘lumotlaridan ichki foydalanuvchilar ham keng foydalanadilar. Moliyaviy hisob ma‘lumotlarini keng iste‘mol qiluvchi tashqi va ichki foydalanuvchilarning tarkibi 2-chizmada keltirilgan.

Statistika hisobi deganda jamiyatda yuz bergan va berayotgan yoppa hodisa va jarayonlarni soniy aks ettiradigan va sifat jihatdan izohlaydigan hisob tizimi tushuniladi. Statistika hisobining asosiy mahsuli bo‘lib statistik hisobotlar hisoblanadi. Statistik hisob ma‘lumotlarni tuman, viloyat va yaxlit mamlakat doirasida jamlaydi. Statistik hisob davlat tomonidan strategik boshqaruvni olib borishga asos hisoblanadi.

O‘qituvchi, har bir guruhga tarqatma material sifatida topshiriqlar berildi. O‘quvchilar “Charxpalak” metodida ko‘rsatilganidek, topshiriqni ishlaydilar va boshqa guruhlariga “Charxpalak aylanmasi” yo‘nalishi bo‘yicha almashtirildi. Boshqa guruh ishtirokchilari topshiriqni o‘rganib, o‘zgartirishlar kiritadi. Jamoalar tomonidan o‘rganilgan va o‘zgarishlar kiritilgan materiallar guruhlararo almashtiriladi. Materiallarni oxiri almashishidan so‘ng har bir guruh va har bir guruh a‘zosi o‘zlari ilk bor to‘ldirgan materiallarini, ya‘ni, o‘zlari qo‘ygan belgilari asosida tanlab oladilar.

Shunday qilib topshiriq kichik uchta guruhda ishlab, muhokama qilinib chiqildi va o‘rganildi. Yuqorida mavzuni seminar mashg‘uloti jarayonida o‘rganishda “Charxpalak” texnologiyasini qo‘llash yo‘llari xususida fikir mulohazalar bildirildi. O‘qituvchi ushbu ma‘lumotlarni puxta bilishi, ularni dars jarayonida samarali qo‘llay olishi talab etiladi. “Charxpalak” metodidan foydalanilsa, yuqori samara berilishi aniqlandi.

3.2. Samarqand bank kolleji dars ta'lim jarayonida "Charxpalak" texnologiyasini qo'llash amaliyotini tahlili va uning afzalliklari

Bugungi kunda Respublikamizda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, har tomonlama etuk shaxslar etib voyaga etkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. "Faol tadbirkorlik, yangi texnologiyalar va innovatsion g'oyalar yili" davlat dasturida aks etgan maqsad va vazifalar zahirida yagona g'oya mujassam. Bu g'oya Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, sog'lom zurriyot, ya'ni jismoniy va ma'naviy yetuk avlodning shakllanishi, imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun zarur bo'lgan tizimni yaratish, yoshlarimizning huquq va manfaatlarini himoyalash, ularning zamonaviy bilim va kasbga ega bo'lishini, innovatsion g'oyalar jamiyatimiz hayotida munosib o'rin egallashini ta'minlashdan iborat.

Endi, quyida "Mavzu bo'yicha seminar mashg'ulotini kichik guruhlariga bo'lib o'tishda "Charxpalak" texnologiyasini boshqa metodlar bilan birga qo'llash va dars samaradorligini oshirish" haqidagi uslubiy ma'lumotlar beriladi. Ushbu ma'lumotlarni bo'lajak buxgalter-pedagoglar uchun juda muhimdir. Chunki, ular mazkur ma'lumotlarni bilishi va ulardan dars jarayonida samarali foydalana olishlari kerak bo'ladi.

Quyida guruhlarni kichik guruhlarga ajratib, dars o'tish metodi haqida so'z yuritiladi. Chunki, o'quvchi ushbu ma'lumotlarni bilishi so'ngra, ularni dars jarayonida qo'llay olishi talab etiladi.

Interfaol metodlardan biri guruhlarni kichik guruhlarga bo'lib dars o'tishdir. Bu metod shunday tuzilganki, unda asosiy mas'uliyat o'quvchilar zimmasiga yuklanadi. Bu metodda ta'lim berish o'quvchining faolligini oshirishga qaratilgan.

Bu metod o'quvchilarga birgalikda ishlashga o'rganish naqadar muhim ekanligini tushunishga yordam beradi. Chunki o'quvchilarni bir-biriga ijobiy ta'siri butun guruhni bilim olishi jarayonini optimallashtirishga ta'sir ko'rsatadi.

Kichik guruhlarga bo'lib dars o'tishda turli variantlarni qo'llash mumkin bo'lgan dars berish metodi hisoblanadi. Lekin, aniq yondoshuvdan qat'iy nazar bu metod asosida dars samarali bo'lishi uchun qator qoidalarga amal qilish kerak.

1. Dars materialini o'zlashtirish jarayonida o'quvchilar komanda bo'lib ishpashi kerak.

2. Har bir guruhda albatta a'lochilar bo'lishi, kichik guruh tarkibi aralash bo'lgani (qizlar, yigitlar) ma'qul.

3. Butun guruh va alohida o'quvchini taqdirlash tizimini ko'zda tutgan bo'lishi kerak.

Bu metod bilan dars o'tish olimlarning ko'rsatishicha an'anaviy dars o'tish metodlariga qaraganda ancha samarali ekan. Tadqiqotlar yana shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarni kichik guruhlarga bo'lib dars o'tishni tashkil etishning o'zi etarli emas ekan. Kutilgan natijaga erishish uchun yana ikki komponent: guruhni rag'batlantirish va shaxsan mas'uliyatni his qilish mexanizmi va uni rag'batlantirish tizimini ishlab chiqish kerak ekan. Agarda guruh miqyosida rag'batlantirish etarli bo'lmasa, guruh a'zolari o'z o'rtoqlarini o'tilayotgan darsni o'zlashtirishigauncha ahamiyat bermay ko'yadilar.

Guruh a'zolarini individual tarzda sinash, har bir o'quvchini shaxsiy mas'uliyatni his qilishga, bir-birlariga bilganlarini o'rgatish yoki bir-birlari bilan munozara qilish asosidabilimlarini mustahkamlashga olib keladi. Har bir o'quvchiga guruxda ishlash jarayonida nimaga erishganini ko'rsatadi. Agar ayrim

o'quvchilarga individual rag'batlantirish kam ko'rinsa, ular komandaning boshqa a'zolari hisobiga ball tuplashgaharakat qiladilar.

Kichik guruhlariga bo'linib dars o'tish metodinipg bir necha variantlari mavjud. Ulardan biri komandalarning o'quv materialini o'zlashtirish natijasini yaxshilashga qaratilgan. Bunda o'qituvchi biron-bir material yoki o'tilgan darsni qisqacha tushuntirib o'quvchilarga topshiriq beradi. Topshiriq masala, mashq, savolga javob va boshqa shakllardagi nazorat ishi bo'lishi mumkin. So'ngira topshiriq komandalar ichida muhokama qilinadi. Keyin o'rganilgan mavzu bo'yicha har bir komanda a'zosi individual tarzda nazorat ishi yozadi. Har bir o'quvchi olgan ballni qo'yib, umumiy komanda balli chiqariladi. U avvalgi shaxsiy va komanda to'plagan ball bilan taqqoslanadi. Komandalarning olgan o'rinlari aniqlanadi. To'plangan ballga ko'ra rag'batlantiriladi.

Ikkinchi modelda nazorat ishi emas, balki mustaqil (konkurs) o'tkaziladi. Bunda komanda a'zolari boshqa komanda a'zolari bilan musobaqalashib achkolar to'plashadi.

Uchinchi model, mozaika modeli deb ham ataladi. Bu model ko'proq katta guruh, aytaylik, 20-25 tadan o'quvchi bor guruhlarda ko'llangani ma'qul.

Guruhdagi o'quvchilar soniga qarab o'qituvchi har bir komandaga 4 yoki 5 tadan o'quvchini jalb qilib, har bir komanda tarkibidagi o'quvchi soniga qarab, 4 yoki 5 qismdan iborat materialni o'rganish uchun topshiriq beradi. Har bir komadadan bir kishi bitta qismni yoki sayulni o'rganishga mas'ul qilib belgilanadi.

Turli komandalardan shu qism yoki savolni olgan o'quvchilar birga yig'ilib, shu savol-o'quv topshirig'ini muhokama qiladilar. Bu guruhlarini odatda ekspert guruhlarini deb ataladi. Agarda asosiy guruxlarni alfavitdagi harflar bilan belgilasak, o'quvchilarni raqamlar bilan belgilaymiz.

Aytaylik, guruh 20 ta o'quvchidan iborat. O'qituvchi ularni 5 tadan 4 ta guruhga: A, B, V, G bo'ladi. Birinchi guruh A, undagi o'quvchilar A1, A2, AZ, A4 ikkinchi guruh B, undagi o'quvchilar B1, B2, BZ, B4 va hokazo tarzida bo'linadi. Har bir o'quvchi o'zining nomeri bo'yicha asosiy komandasidan, ya'ni harf

bo'yicha o'quv materialining ma'lum qismini yoki savolni o'rganish bo'yicha topshiriq oladi.

So'ngra mutaxassislar guruhida (raqamlar bo'yicha) barcha 1 ski 2 va hokazo raqamlar asosida yangi guruh tashkil bo'ladi. Ya'ni mutaxassislar komandasi A1, B1, V1, G1 ikkinchi komanda A2, B2, V2, G2 va hokazo tarzida yangi komanda hosil bo'ladi. Har bir asosiy komandadan bir xil raqamdagi, lekin harfi har xil komanda a'zolari to'planib, o'zlariga berilgan bo'lak, savol, topshiriqni muhokama qiladilar. So'ngra har kim ekspertlar guruhidan o'zining asosiy guruhiga qaytadi.

Guruhning har bir qatnashchisi ekspertlar guruhida o'zi o'rgangan masalani gapirib beradi. Guruhning har bir qatnashchisi diqqat bilan o'rtoqlarini fikrini eshitishga harakat qiladi. Chunki, berilgan topshiriqni bajarishning yagona yo'li o'rtoqlarining fikrini diqqat bilan tinglab, tahlil qilib, so'ngra gapirib berishi kerak. Undan tashqari har bir o'quvchida o'z topshirig'ini muvafassal bajarish uchun stimuly mavjud. Sababi u berilgan bo'lak, savol, topshiriqni o'rtoqlari qay darajada o'zlashtirishlariga mas'ul.

Kichik guruxdarga bo'lib dars o'tishdagi yana bir to'rtinchi model boshqa modellardan birmuncha farqlanadi. Bu modelda kichik har bir o'quvchi berilgan topshiriqni avval alohida o'qib, o'z fikrini seminar daftariga yozadi. So'ngra guruh birgalikda hammani fikrini o'rganib chiqadi. Kichik guruh nomidan javob tayyorlanadi, darsda barcha guruhlarni javoblari eshitaladi va guruhni erishgan natijasi baholanadi.

Kichik guruhlarda o'quvchilar o'rtasida fikr almashuv, muammo tahlil qilish imkoniyati keng. Har bir o'quvchining fikri o'rtoqlari tomonidan tahlil qilinadi. Bunda har bir o'quvchi albatta, o'z fikrini asoslashga, himoya qilishga harakat qiladi. Munozara jarayonida har bir o'quvchi o'z xatosini tushunadi yoki haqligini sinab ko'radi, hamkorlikda muammoni echish o'rganadi.

Guruhni kichik guruhlarga bo'lib ishlash maqsadga muvofiq, qachonki:

o Axborot bilan almashuv;

o G'oya va fikrlarni yig'ish va o'rtoqlashish;

o Qiyin yechiladigan muammo va variantlarni tahlil qilish;

o Murakkab masalani echish va xulosa chiqarish zarur bo'lsa;

Guruhda ishlash individual ishlashga qaraganda yaxsh natija beradi. Sababi:

— Guruhda axborot diapazoni keng, chunki har bir tapab ozmi-ko'pmi ma'lum axborotga ega;

— Hamkorlik natijasida guruxdagi o'quvchilarning ta'siri tufayli passiv o'quvchilarning ham faolligi ortish mumkin.

—Ko'pgina taklif, fikrlar o'zaro tanqid natijasida puchaklari puchakka, sarakpari sarakka ajratiladi.

Guruh bilan ishlash o'qitishning ijtimoiy metodi jihatdan o'quvchilarning bilimdon bo'lishiga qaratilgan. Uni mohirlik bilan qo'llash maqsadga etishga olib keladi. Metodni qo'llash natijasida o'quvchilar tomonidan:

- Birgalikda ishlash shakllari o'rganiladi.
- Nutq so'zlash va o'z fikrini asoslab berishga, himoyalanihga o'rganadi.
- Mustaqil fikrlash va muammolarni echishga ishtiyoq shakllanadi;
- O'rganishga, bo'lgan ko'nikma hosil bo'ladi.

Kichik guruhlariga bo'lib dars o'tilganda darsda o'qituvchi yagona axborot beruvchi, taqriz qiluvchi, baholovchi shaxs sifatida markazda turmaydi. U mavzuni o'rgatuvchidan darsni tayyorlovchi va tashkil etuvchiga aylanadi.

vositalardan foydalanish mumkin.

Ma'lumki, o'qituvchi dars boshlanishidan oldin kompyuterda mavzuga oid slaydlar tayyorlaydi. Ushbu slaydlar chizma, jadval yoki grafik bo'lishi mumkin. Quyida "Fond qaytimiga ta'sir etuvchi omillar" jadvali keltirildi:⁷

Kichik guruhlarda berilgan topshiriq bo'yicha mavzuni datensiv o'rganishga to'g'ri keladi. Qo'shimcha adabiyotlar bilan ta'minlash, ularni chuqur o'zlashtirishga harakat qilish natijasida olingan bilimning uzoq muddat yodda qolishiga erishiladi.

Juftlik yoki kichik guruhlariga bo'lib dars o'tishning muvaffaqiyatli bo'lishi ko'p jihatdan unga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishga bog'liq. Dars

o'tkazishdan avval o'qituvchi darsni qanday bo'lishini ko'z o'ngiga keltirib chiqishi kerak. Bu metod bilan dars o'tishning muvaffaqiyati beriladigan topshiriqning qanday qo'yilishi, aniqligiga ham bog'liq kichik guruhlarda ishlash faqat qo'yilgan topshiriqni emas, balki uning natijasini muhokama qilishni ham o'z ichiga oladi. Bunda doskadan, texnik O'qituvchi naraqat tarqatma materiallardan foydalanadi, balki, proektardan ham foydalanib dars o'tadi.

Har qanday kichik guruxda ishlashning eng diqqat qaratadigan jihati kichik gurux, oxir-oqibat umuman butun guruhning ishini unumli bo'lishini ta'minlash. Buning uchun o'qituvchi avvaldan hamma dars jarayonini rejalashtirishi kerak.

- Tayyorgarlik ko'rish;
- Maqsad qo'yish;
- Material tanlash;
- Har bir kichik guruhga topshiriqni tushuntirish;
- Zarur materiallar bilan ta'minlash;
- O'qituvchi qo'yilayotgan topshiriqni, masalani o'zi echishi zarurligi.

Axborot bilan ta'minlash.

• Kichik guruhlar qanday topshiriq oladilar, uni bajarishga qancha vakt ajratiladi. Qanday qoidalarga rioya qilish kerak kabilar e'lon qilinadi.

- Kichik guruhlar o'z top shiri klarini oladilar.
- Kichik guruhlariga ishlash uchun beriladi.
- Kichik guruhlar o'z joylarini egallaydi. Topshiriq ustida ishlash.
- Kichik guruh topshirikni olgach, guruh vazifalarrg bo'lishib rlishi mumkin.
- Kichik guruh o'zining topshirig'ini bajaradi.
- Kichik guruh o'z ishi natijasini butun guruh oldida gapirib berishga, qilgan i shin i ko'rsatishgatayyorlanadi.

YAkuni:

- Kichik guruxlar ko'yilgan masalani birgalikda muhokama qilish uchun yig'iladi;
- Har bir kichik guruxdan bitta o'kuvchi (dokladchi) guruhning erishgan

natijasini;

- Kisqachadoklad qilib beradi;
- Kichik guruxlar ish natijasi muhokama qilinadi;
- Kichik guruh o'z ish natijasini boshqa kichik guruxlar natijasi bilan

taqqoslaydi;

- Kichik guruxlar tomonidan bildirilgan fikrlar bo'yicha u umumiy xulosaga kelinadi;

- Hamma o'quvchilarga umumiy natija e'lon kilinadi. Uqituvchining o'rni.

Juftlik yoki kichik guruxlarga bo'lib o'qitish metodida dare olib borish boshka an'anaviy metodlar: savol-javob, ekspress savol-javob, bayon kilish, suhbat, ma'ruza o'qish va boshqalar quyidagilarni nazarda tutadi:

1. O'qituvchi qaror qabul kiladi;
2. Darsni tashkil qiladi va boshlaydi;
3. Nazorat qiladi va zarur bo'lganda aralashadi;
4. Tahlil qiladi va baholaydi.

O'qituvchi o'tiladigan mavzuning mazmuniga, auditoriyada darsni qanday o'tish imkoniyati mavjudligiga ko'ra juftlikda katta yoki kichik guruhlarga bo'lish haqida qaror qabul kiladi. Guruxlarga topshiriq beradi, topshiriq esa darsga o'qituvchi tomonidan tayyorlangan bo'lib, u o'tilgan mavzuni muhokama qilish yoki asosiy tushunchalar bo'yicha bo'lishi kerak.

Kichik guruhlar ishining muvaffaqiyati ko'p jihatdan darsni to'g'ri tashkil qilish, topshiriq va uning tarkibini aniqlash, dars o'tkazishni rejalashtirish va o'tkazishga bog'liq. Darsni rejalashtirayotganda quyidagilarni mo'ljal qilib olish mumkin.

1. O'zaro ijodiy bog'liqlik, bevosita bir-biriga o'zaro ta'sir etishi. Guruhda ijodiy tarzda o'zaro ijodiy bog'lanish yuz beradi, qachonki:

- Kichik guruh oldiga umumiy maqsad ko'yiladi (masalan, guruxda biron-bir materialni o'zlashtirish, savolga javob berish topshirilgan o'quvchilar ana shu material guruhning har bir a'zosini, tushunib etishiga e'tibor kilishi kerak).

- Guruhning barcha a'zolari rag'batlantiriladi (masalan, guruhni har bir

a'zosi, qachonki guruh a'zolari topshiriqni bajarib, ma'lum belgilangan natijaga erishgandagina ball oladi)

- Guruh a'zolari o'zlarida bor material va axborotni o'zaro almashtirishlari, o'rtoqlashishlari kerak (masalan, guruhning bir qismi bir materialni, ikkinchi qismi boshqa materialni o'rganadi va so'ngra olgan axborotlari bilan fikr almashadilar va hokazo).

- Guruh a'zolari o'zaro hamkorlikda o'ylaydilar va ma'lum rolni o'ynaydilar (masalan, biri yozib turadi, biri butun guruh nomidan so'zga chiqadi, boshqalari munozarada qatnashadi). SHunday tarzda ijodiy o'zaro bog'lanish ijobiy bevosita o'zaro hamkorlik jarayonida a'zolari o'rtasida og'zaki tahlil va muloqotda bo'lgan (axborotni bilmasligi mumkin) o'quvchilar bir-biridan o'rganadi.

2. Shaxsiy mas'uliyatni xis qilish. O'zaro ijodiy hamkorlikning o'zi kichik guruxlarga bo'linib dars o'tishning muhim natijasi hisoblanadi. Lekin har bir guruh a'zosining yangi bilimni o'zlashtirishini ta'minlash uchun berilgan material yoki savolni o'rganishda har birining javobgarligini anglashiga erishish zarur. Har bir o'quvchining shaxsiy javobgarlikni his qilishi qay darajada ekanligini nazorat ishi yoki tavakkaliga tanlangan a'zolaridan biri javobiga aniqlash mumkin.

3. O'quvchilar o'rtasida muloqot, kichik guruhda ishlay bilish mahorati. Guruhda samarali ishlash uchun o'quvchilar o'rtasida bir-biriga ta'sir ko'rsatish malakasini har jihatdan rivojlantirishga ahamiyat berish zarur. Bunga masalan, mulokrt kilish, ishonch bildirish, liderlik (sardorlik) qilish, qaror qabul kilish vaziyatni bartaraf kilish kabilarni guruhbo'lib ishlash.

4. Axborotlarni birgalikda ishlashni amalga oshiradilar va materialni tahlil qilib o'z fikrlarini o'rtoqlashadilar. Juftlik yoki kichik metodining asosiy jihatlari qaror qabul qilish va konfliktli ko'rsatish mumkin.

- Ijodiy hamkorlik ko'rsatish; bevosita bir-biriga ta'sir ko'rsatish; mas'uliyat his qilish;

- O'quvchilar o'rtasida muloqot, kichik guruhlarda birgalikda ishlay bilish

mahorati;

- axborotlarni guruh bo'lib birgalikda ishlash;
- muammoni, mavzuni, savollarni o'quvchilarning mustaqilligi;
- mustaqil olingan natija yaxshi o'zlashtiriladi va uzoq vaqt yodda qoladi;
- mavzu bo'yicha o'quvchilar intensivlashadi. Hamkorlikda ishlash

imkoniyati mavjudligi;

- o'qituvchi yagona axborotchi, muxarrir, imtihon qiluvchi sifatida asosiy o'rinda turmaydi;

- o'quvchilarda o'z bilimini o'rtoqlariga nisbatan baholash va bilmaganlarini o'rganishga intilish kuchayadi;

- o'quvchilarda muammoni, vaziyatni turli yondoshib tahlil qilish qobiliyati o'sadi;

- o'quvchilarning hatti-harakatini aniq maqsadga qaratilishi ortadi;

- o'quvchilar o'rtasida hamkorlik, ijobiy munosabatlar shakllanadi.

Kichik guruxdarga bo'lib dars o'tishning o'ziga xos kamchiliklari mavjud. Bu metodni tanqid qiluvchilar quyidagilarga ahamiyat berishadi. **Birinchi** muammo, bilimni rag'batlantirish bilan bog'liq. Nisbatan bilimi kuchsiz o'quvchilar materialni boshqalarga o'xshab o'zlashtirmaganlari sababli butun kichik guruh past ball to'plashi mumkin. Bilimi kuchli o'quvchilar yuqori baho ola olmasliklari mumkin.

Ikkinchidan, o'qituvchining dars o'tishdagi roli minimal, murakkab masalalarni muhokama qilishida.

Uchinchidan, bu metod shuni nazarda tutadiki, o'quvchilar bir-biriga o'rgatadi. Lekin ulardan hech biri predmetni o'qituvchidek bilmaydi. Yangi tushuncha, yangi o'quv materialini berilganda mazmunini chuqur va yaxshi tushunadigan o'qituvchi bo'lishi.

To'rtinchidan, juda ko'p o'qituvchilar kichik guruhga bo'lib o'tishni oddiy guruh bo'yicha ishlash tarzida ko'rishadi, nazariy jihatdan o'quv materialini o'zlashtirish uchun emas. Natijada bu metodning imkoniyati to'la ishga qoladi.

Beshinchidan, kichik guruhga bo'lib dars o'tish jarayonida muammo

tug'dirishi mumkin. Sababi, ko'yilgan kichik guruhda muhokama qilish uchun ko'shimcha auditoriyadan foydalaniladi. Bitta auditoriyada bo'lsa shovqin-suron bo'lib bir-birlariga xalaqit berishlari mumkin. Shuning uchun eng yaxshi yo'li kichik guruhlarda berilgan topshiriqni darsdan tashqari paytda muhokama kilib, seminar darsida har bir guruh ma'ruzachilarini tinglash mumkin.

Auditoriyada kichik guruxlarga bo'linib, birgalikda mashq echish mumkin. Bunda topshiriq diqqat bilan tayyorlab o'quvchilar berilgan topshiriqni ma'nosiga tushundimi yo'qmi tekshirish, uni bajarishga aniq vaqt belgilash, guruh o'quvchilar o'rtasida muloqotni tashkil etish kerak.


Kamchiliklari:

- Dars o'tishni boshqa shakllariga qaraganda ko'p vakt talab qiladi;
- Hamma o'quvchilar ham darsga faol katnashmaslik imkoniyati mavjudligi.
- Hamma qatnashchilarda guruh tomonidan chiqarilgan xulosalarning mustahkam yodda qolishni ta'minlash qiyinligi;
- Shunday metod bilan dars o'tishda mavzuning qiyinligi.

Quyida mavzuni o'rganishga oid "Buxgalteriya hisobining predmeti va ob'ektlari" xususida ma'lumot berildi. Chunki, ushbu ma'lumotlar mavzuni o'rganishda muhim hisoblanadi.

Buxgalteriya hisobining predmeti va ob'ektlari

3.2.-jadval



Yuqorida guruhlarni kichik guruhlarga bo'lib dars o'tish metodi haqida ma'lumotlar berildi. Mazkur paragraf mazmunida mavzuni seminar mashg'uloti jarayonida dars o'tishda "Charxpalak" metodini qo'llash yo'llari xususida ma'lumotlar berildi. Xususan, "Charxpalak" metodi tafsiloti batafsil berildi. Va, tarqatmali materiallar yordamida kichik to'rtta guruhga mavzuga oid topshiriqlar berildi.

Endi, quyidagi mavzuni o'rganishda jadvallar bilan ishlash metodi qo'llanildi. Xususan:

1-kichik guruhlar uchun tarqatma material.

Buxgalteriya hisobining predmeti va ob'ektlari to'g'risida tushuncha bering ?

1-kichik guruhlar uchun tarqatma materialning javobi

Buxgalteriya hisobining predmeti - deganda korxon va tashkilotlarning xo'jalik faoliyati, ushbu faoliyatni tashkil etuvchi jarayonlar va ularni yuritilishini ta'minlovchi mablag'lar, mablag'larning tashkil topish manbalari, shuningdek xo'jalik faoliyatining natijalari tushuniladi.

Yuqoridagi ta'rifga asosan buxgalteriya hisobi predmetini ifodalovchi ob'ektlarni quyidagi to'rtta guruhga ajratish mumkin:

- Xo'jalik faoliyati;
- Xo'jalik aktivlari;
- Xo'jalik aktivlarining manbalari;
- Xo'jalik faoliyatining natijalari

2-kichik guruh uchun tarqatma material.

Buxgalteriya hisobining tamoyillarini tahlil qiling.

2-kichik guruhlar uchun tarqatma materialning javobi

Buxgalteriya hisobi tamoyillari deganda - uni yuritishda amal qilish lozim bo'lgan qoida va tartiblar majmuasi tushuniladi. Bu tamoyillarning asosiylari quyidagilar:

Uzliksizlik tamoyili. Bu tamoyil korxonani doimo harakatdagi sub'ekt, ya'ni o'z faoliyatini kelgusida davom ettiruvchi va rivojlantiruvchi sub'ekt sifatida qaraydi. Buxgalteriya hisobini uzliksiz yuritilishi korxonaning kelajagi borligidan darak beradi. Bundan tashqari buxgalteriya hisobi korxonaning kelajakda ravnaq topishiga xizmat qiluvchi vosita hamdir.

Hisoblash tamoyili. Bu tamoyil korxonaning daromad va harajatlarini yuz bergan vaqtiga ko'ra tan olish va shu vaqtdan boshlab ularni buxgalteriya hisobida va hisobotda aks ettirishni bildiradi. Soliq Kodeksiga muvofiq 1998 yil 1 yanvardan boshlab barcha korxonalar uchun ularning mulk shaklidan qat'iy nazar sotish momenti qilib mahsulot (ish, xizmat) ni jo'natish (bajarish) sanasi, ular uchun to'lov pulini qachon kelib tushishidan qat'iy nazar, qabul qilindi.

Ikki yoqlama yozuv tamoyili. Bu tamoyil korxonada yuz bergan har qanday operatsiyaning summasini bir vaqtning o'zida ikkita schetda, ya'ni birining debetida va ikkinchisining kreditida aks ettirishni bildiradi. Ushbu tamoyilga amal qilish korxonaning aktivlari va ularning tashkil topish manbalari summalarini doimo teng bo'lishini ta'minlaydi.

Qiymat tamoyili. Bu tamoyil korxonada aktivlari va passivlarini tannarx yoki bozor baholarida (ulardan qaysi biri past bo'lsa, o'shanda) hisobga olishni bildiradi.

Pulda ifodalash tamoyili. Bu tamoyil barcha aktiv va passivlarni, yuz bergan operatsiyalarni milliy valyutada, ya'ni sum va tiyinlarda aks ettirishni bildiradi.

Ehtiyotkorlik yoki konservatizm tamoyili. Bu tamoyil korxonada hisobotida aktivlar va daromadlarni kam (ko'p) qilib ko'rsatmaslikni, shu bilan birga majburiyatlarni yoki harajatlarni ko'p (kam) qilib ko'rsatmaslikni ifodalaydi. Ushbu tamoyilni qo'llash yashirilgan rezervlarni vujudga keltirish, biron maqsadda aktiv yoki foydani kamaytirib (ko'paytirib) ko'rsatish, harajat va majburiyatlarni ko'paytirib (kamaytirib) ko'rsatish huquqini bermaydi.

Hisobot davri daromad va harajatlarining mosligi tamoyili. Bu tamoyil hisobot davri harajatlariga shu davrda real daromad keltirgan qismini kiritishni bildiradi.

Mazmunni shakldan ustunlik tamoyili. Bu tamoyil korxonada aktivlarini huquqiy maqomi bo'yicha emas, balkim ularning iqtisodiy mazmuni, egalik qilish huquqini berilish vaqtiga ko'ra hisobga olish va balansga kiritishni ifodalaydi. Masalan, tovar–moddiy boyliklar korxonaga kelib tushgan sanadan boshlab, ular uchun xaq to'langan yoki to'lanmagan bo'lishidan qat'iy nazar, korxonada aktivlari tarkibiga kiritiladi va balansga olinadi. Uzoq muddali ijaraga olingan asosiy vositalar ham ularning haqi to'lanishi muddatidan qat'iy nazar korxonada balansiga olingan kundan boshlab kiritiladi.

Neytrallik tamoyili. Bu tamoyil moliviy hisobotni biron bir shaxs manfaatlariga uchun boshqa biron bir shaxs zararlariga evaziga moslashtirmaslikni bildiradi.

Aniqlilik tamoyili. Bu tamoyil hisobda aks ettirilgan har bir summani qat'iy hujjatli asosga ega bo'lishligini bildiradi.

Ahamiyatlilik tamoyili. Bu tamoyil hisobda shakllangan ma'lumotlarni foydalanuvchilarning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda ahamiyatliligini bildiradi.

Muhimlilik tamoyili. Bu tamoyil hisob va hisobot ma'lumotlarini foydalanuvchilarning taqdim etilgan axborot asosida qabul qilgan qarorlariga ta'sirini bildiradi.

Tushunarlilik tamoyili. Bu tamoyil hisob ma'lumotlarini barcha foydalanuvchilar uchun tushunarlilikini bildiradi.

Yakunlanganlik tamoyili. Bu tamoyil hisob ma'lumotlarini biron bir hisobot davri uchun jamlanganligini, ya'ni moliyaviy hisobot hisobot davri ma'lumotlarini to'liq qamrab olganligini bildiradi.

Taqqoslamalik tamoyili. Bu tamoyil hisobot ma'lumotlarini o'zaro mos hisobot davrlari bo'yicha (choraklar, yil) mavjud real tendensiyalarni aniqlash uchun o'zaro taqqoslash imkoniyatlarini bildiradi. Bunday taqqoslashlar uchun o'tgan yillar ma'lumotlari taqqoslama baholarda qayta hisoblanishi lozim.

Tejamkorlik tamoyili. Bu tamoyil hisob va hisobotni kam mehnat va moliyaviy mablag‘lar sarflab olib borishni bildiradi.

Tezkorlik tamoyili. Bu tamoyil hisob va hisobot ma’lumotlarini boshqaruv organlariga kerakli vaqtda va hajmda berishni bildiradi. Kechiktirib berilgan ma’lumotlar hisobning boshqaruv vositasi sifatidagi rolini pasaytiradi. Aksincha, o‘z vaqtida berilgan ma’lumotlar hisobni boshqaruv vositasi sifatida rolini, uning ta’sirchanlik kuchini oshiradi.

3-kichik guruh uchun tarqatma material

“Xo‘jalik” tushunchasiga ta’rif bering.

3-kichik guruh uchun tarqatma materialning javobi

«Xo‘jalik» deganda ma’lum maqsadlarga yo‘naltirilgan, o‘zining bazisi va ustqurmasiga ega bo‘lgan sub’ektlar tushuniladi. Xo‘jalik sifatida qaraladigan sub’ektlar bo‘lib bir butun mamlakatning o‘zi va uning turli tarkibiy bo‘linmalari, masalan, tarmoqlari, sohalari, mintaqalari, hududlari, vazirliklar, birlashmalar, korxonalar hisoblanadi. Mamlakat doiraisdagi xo‘jalik xalq xo‘jaligi, uning eng qo‘yi bo‘g‘inidagi xo‘jalik korxonalar xo‘jaligi deb ataladi. Iqtisodiyotning yuqori va qo‘yi bo‘g‘inlari o‘rtasidagi xo‘jaliklarga tarmoqlar, sohalar, birlashmalar, viloyatlar, tuman va shaharlar xo‘jaliklari kiradi.

4-kichik guruh uchun tarqatma material

“Hisob” tushunchasiga ta’rif bering

4-kichik guruh uchun tarqatma materialning javobi

«Hisob» - bu xo‘jalikda yuz bergan va berayotgan hodisa va jarayonlar, ularning natijalari to‘g‘risidagi axborotlarni yig‘ish, qayd etish, guruhlash va uzatish tizimi. Demak, hisobning asosiy mahsuli bo‘lib axborot, hisob yuritishning asosiy maqsadi bo‘lib, bu axborotlarni aniq, to‘liq va o‘z vaqtida yig‘ish, qayd

etish, guruhlash va foydalanuvchilarga yetkazib berish hisoblanadi.

Mavzu bo'yicha guruhni kichik guruhlarga bo'lib dars o'tishda "Charxpalak" metodini boshqa metodlar bilan birga qo'llash yuqori natijalarni berdi. Xususan, tarqatma materiallar, savol – javoblar, kichik guruhlarda ishlash, suhbat kabi metodlar. "Charxpalak" metodini o'tkazishda birgalikda qo'llaniladi. Demak, mavzu bo'yicha guruhni kichik guruhlarga ajratib, dars o'tishda "Charxpalak" metodini boshqa metodlar bilan birga qo'llash orqali dars samaradorligining ortishiga erishildi.

XULOSA

2017-2021 yillarda O`zbekistonni rivojlantirishni beshta ustuvor yo`nalishlari bo`yicha Harakatlar Strategiyasi dasturida belgilangan talablar asosida malakali va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash uchun quyidagilar amalga oshirilishi lozim deb hisoblayman:

- eng avvalo, mamlakatning uzluksiz ta`lim tizimi rivojlangan mamlakatlar ta`lim tizimi darajasida yaxshi yo`lga qo`yilgan bo`lishi;

- buxgalter-pedagoglar o`z fanini chuqur va mukammal bilishi hamda o`z kasbining mohir ustasi bo`lishi;

- buxgalter-pedagoglar dars jarayonida turli xil interfaol o`qitish metodlaridan hamda ko`rgazmali va tarqatmali materiallardan unumli foydalanishi;

- buxgalter-pedagog buxgateriya hisobi fanlarini o`quvchilarga etkazishida oddiydan murakkabga borish, ketma-ketlik va uzviylik tamoyillariga amal qilishi;

- buxgalter-pedagog dars jarayonida fanlararo bog`liqlikka amal qilishi va bir qancha o`qitish metodlarini bir dars (vaqt)da qo`llay olishi;

- buxgalter-pedagoglar o`quvchilarni darsdan tashqari mashg`ulotlar jarayoniga ya`ni, mustaqil ta`lim olishiga faol yo`naltira bilishi.

Ma`lumki, “Buxgalteriyaning predmeti va vazifalari” mavzusini oqitishda charxpalak pedagogik texnologiyasidan foyddalanish mavzusini o`rganishda “Charxpalak” texnologiyasini qo`llashda, mavzuni nazariy jihatdan yoritilayotganda avvalo, uning maqsadi va vazifalari aniqlanadi. Darsning sifati va samaradorligini oshirish uchun iqtisodchi-pedagogning darsga qanday darajada tayyorgarlik ko`rganiga, o`quvchilarning darsga bo`lgan qiziqishi, faolligi hamda sinf xonasining darsga tayyorgarlik holati kabi jihatlarga ham bog`liq bo`ladi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishi natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

- 1.Mavzuning maqsadi, vazifalari, tarkibi, tuzilishi va dinamikasining tahlili haqida ilmiy-nazariy ma`lumotlar berildi va ular o`rganildi.

- 2.“Buxgalteriyaning predmeti va vazifalari” mavzusini oqitishda charxpalak

pedagogik texnologiyasidan foydalanish mavzusining o'ziga xos xususiyatlari aniqlandi.

1. Mavzuning o'ziga xos xususiyatlarini ma'ruza darsini o'tish jarayonida hisobga olish yo'llari ko'rsatildi.
2. Mavzuni o'rganishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish zaruriyati isbotlandi.
3. Mavzuni seminar mashg'uloti jarayonida o'tishda "Charxpalak" texnologiyasini qo'llash yo'llari yoritildi.
4. Mavzu bo'yicha guruhni kichik guruhlarga bo'lib, dars o'tishda "Charxpalak" texnologiyasini boshqa metodlar bilan birga qo'llandi va dars samaradorligining oshirilishiga erishildi.
5. Mavzu bo'yicha xulosalar berildi va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalarga tayangan holda, amalga oshirilgan bitiruv malakaviy ishining natijasida quyidagilarni tavsiya etish mumkin:

"Buxgalteriyaning predmeti va vazifalari" mavzusini oqitishda charxpalak pedagogik texnologiyasidan foydalanish mavzusini seminar mashg'uloti jarayonida o'tishda "Charxpalak" texnologiyasini qo'llashning aniq maqsadi va vazifalari belgilanib olishi kerak. Chunki, "Buxgalteriyaning predmeti va vazifalari" mavzusini oqitishda charxpalak pedagogik texnologiyasidan foydalanishning aniq maqsadi va vazifalari an'anaviy dars o'tish jarayonida talab darajasida belgilab berilmagan.

- mavzuni o'rganishga oid turli interfaol o'qitish metodlari tuzilishi kerakki, ular o'quvchilarni mulohaza yuritishga chorlasin.
- mavzuga oid seminar mashg'ulotini shunday tashkil qilish kerakki, unda majmuaviy yondashuv amalga oshirilsin. Ya'ni, bir darsning o'zida bir qancha metodlar birga qo'llanilsin.
- dars jarayonida majmuaviy yondashuvni amalga oshirishda o'quvchilarning o'zlashtirish darajalari va sinf xonasining texnik jihozlar bilan ta'minlanishiga erishish lozim.

Yuqorida qayd etilgan yondashuvlar asosida "Buxgalteriyaning predmeti

va vazifalari” mavzusini oqitishda charxpalak pedagogik texnologiyasidan foydalanish mavzusini boshqa mavzularini o’ tishda ham e’ tiborga olish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

I.O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident farmonlari va qarorlari, boshqa huquqiy hujjatlar

- 1.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston, 2012.
- 1.2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. -T. O'zbekiston, 1997 yil 29 avgust.
- 1.3. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi qonun. Oliy ta'lim. Me'yoriy hujjatalr to'plami.

1.4. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishlari bo`yicha harakatlar Strategiyasi» Toshkent sh., 2017 yil 7 fevral, PF-4947-son.

II. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma`ruzalari

2.1. Sh.M.Mirziyoyev «Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda quramiz» Toshkent - «O`zbekiston»-2016 yil.

2.2. Sh.M.Mirziyoyev «Buyuk kelejagimizni mard va oliyjanob bilan birga quramiz» «O`zbekiston»-2017 yil

2.3. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning mamlakatimizni 2017 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2018 yilda mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma`ruzasi, Oliy Majlisga yo`llagan murojatnomasi. Xalq so`zi gazetasi, 2017 yil 22 dekabr.

III. Asosiy adabiyotlar

3.1. Azizxo`jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - T., 2014.

3.2. Mavlonova A., To`rayeva O., Xoliqberdiyev K. Pedagogika - T.: O`qituvchi, 2013.

3.3. Omonov X.T., Xo`jayev N.X., Madyarova S.A. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik. - T.: Iqtisod-moliya, 2013. 97 b.

3.4. Hakimova M.F., Xujayev N. Pedagogik texnologiyalar. O`quv qo`llanma - T.: Fan va texnologiya, 2014. - 138 bet.

3.5. A. Xoliqov. Pedagogik mahorat. Darslik - T.: O`qituvchi, 2011.

3.6. J. Xasanboev va b. Pedagogika. Darslik - T.: O`qituvchi, 2011.

3.7. Iskandarov E.A., Suyunov O.J. Pedagogik texnologiyalar. O`quv qo`llanma. – Samarqand, 2012.

3.8. Suyunov O. J. Yangi pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O`quv-uslubiy qo`llanma. – Samarqand, 2011.

3.9.D.Ro'ziyeva va b. Interfaol metodlar mohiyati va qo'llanilishi. – Toshkent, 2013.

3.10.Urazov K.B., Vaxidov S.B. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobotining xususiyatlari.- T. : "Adib nashriyoti", 2011.

3.11.Urazov K.B., Xudayberdiyev N.U. Soliqlar va to'lovlar ayditining xususiyatlari. Samarqand – 2012 .

3.12. Amonov A.A. Sud-buxgalteriya expertizasi. SamISI, 2017.

3.13.Urazov K.B., Xudayberdiyev N.U. Xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarida buxgalteriya hisobi va auditining dolzarb masalalari. - T., 2012.

IV. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar

4.1. Iqtisodiyot va ta'lim. Jurnal. 2017. 1-3 sonlar.

4.2. Xalq ta'limi. Jurnal. 2017-2018 y. 2-5 sonlar.

4.3. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2016-2017 yillardagi ma'lumotlari.

V. Internet saytlari

5.1. [www.bilimdon](http://www.bilimdon.uz) uz. - O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining veb sayti.

5.2. www.de.uz -masofaviy ta'lim tizimiga bag'ishlangan veb sayt.


5.3. www.newhorizons.org. -Talimning yangi ufqlari.


5.4. www.ziyonet.uz sayti.

5.5. www.edu.uz sayti.

5.6. www.pedagog.uz - O'zbekiston pedagoglar sayti

ILOVALAR





FSMU jadvali

Ne'matlar narxi tushganda byudjet chizig'ini siljitish zarurmi?

F (Fikringizni bayon eting).

S (Fikringiz bayoniga biror sabab ko'rsating).

M (Ko'rsatilgan sababga tushuntiruvchi misol keltiring).

U(Fikringizni umumlashtiring).

